Uyg’unlashuvni ta’minlashda quyidagi tavsiyalarni bergan bo’lardik.

1. O’qitish jarayonida til mashqlari bilan birga madaniy mashqlar (masalan, manba madaniyati va maqsad madaniyatidagi farqlar, idiomalar, urf-odatlar) kiritish.

O’qitish jarayonida til mashqlari bilan birga madaniy mashqlarni o’tkazish – bu til va madaniyat kompetensiyalari uyg’unlashuvini ta’minlashning samarali usuli. Til mashqlari: grammatik qoidalar, so’z boyligi, jumla tuzish, lug’at ishlatish. Madaniy mashqlar: urf-odatlar, tarixiy kontekst, madaniy tafovutlarni o’rganish, idiomalar va metaforalarni

tushunish. Ularning integratsiyasi tilni faqat texnik jihatdan o’rganishni emas, balki ma’no va kontekstni ham to’liq qamrab olishni ta’minlaydi.[1]

Bu borada badiiy tarjimaga o’rgatayotgan pedagoglar har bir til mashqini madaniy kontekst bilan bog’lash: so’zlar va iboralar qayerda, qachon ishlatilishini tushuntirishga, badiiy matnlarni tanlashda madaniyat elementlari boy bo’lgan matnlarni tanlashga, talabalar bilan muammo-mashqlar tashkil qilish: matnda nimani tarjima qilish qiyin va nima madaniy moslashuv talab qilishga va refleksiya va muhokama: mashqdan so’ng madaniy tafovutlar va til tanlovlarini muhokama qilishga katta e’tibor qaratishlari ayni muddaodir.

Mashq turi	Maqsad	Misol
Madaniyat konteksti tahlili	Matndagi urf-odatlar, tarixiy yoki ijtimoiy voqealarni tushunish	Badiiy matnda bayram, an’anaviy taom yoki ramzlar haqida izoh berish
Idiomalarni tarjima qilish	Til va madaniyatni birgalikda tushunish	Inglizcha “spill the beans” → “sirni oshkor qilmoq”
Madaniyat rolli o’yinlar	Interfktiv ravishda madaniyatni o’rganish	Talabalar “mehmon keladi” ssenarisida madaniy odob-axloqni qo’llash
Madaniyat + til integratsiyalashgan testlar	Til bilimini madaniy kontekst bilan birlashtirish	Matndan kontekstni tushunish va mos tarjimani topish
Taqqoslash mashqlari	Manba va maqsad madaniyati farqlarini ko’rsatish	“Thanksgiving” bayramini boshqa mamlakat bayramlari bilan solishtirish

2. Badiiy tarjimada til va madaniyat kompetensiyalari alohida o’rganilmasdan, balki tarjima maqsadi va kontekstiga qarab uyg’unlashishi zarur. Bu uyg’unlashuv talabaning yoki tarjimonning til bilimlari (grammatika, leksika, sintaksis) madaniyat bilimlari (urflar, qadriyatlar, kontekst, idiomalar) birgalikdagi qo’llanishini ta’minlaydi.

Tarjima kompetensiyasiga oid bir necha tavsiyalar taklif qilingan, bu tavsiyalar tarjima uchun “ikki til kompetensiyasi + madaniy/ekstra-lingvistik bilimlar + strategik, instrumental kompetensiyalar” kabi komponentlardan iborat.

Tavsiya	Tavsif	Tarjima maqsadiga moslashuvi
Liney	Til va madaniyat bilimlari ketma-ket o'rgatiladi	Avval til bilimlari, keyin madaniyat bilimlari, so'ng matn tarjimasi
Parallel	Til va madaniyat bilimlari bir vaqtda o'rgatiladi	Har bir so'z, ibora yoki jumlani o'rgatishda madaniy kontekstni ham ko'rsatish
Integrativ	Til va madaniyat bilimlari bir-birini to'ldiradi, mashqlar orqali uyg'unlashadi	Matnlarni tarjima qilayotganda, har bir element uchun til va madaniyat jihatlarini birgalikda tahlil qilish
Maqsadga yo'naltirilgan	Tarjima turi (badiiy, ilmiy, texnik) va auditoriyaga qarab integrasiya darajasi o'zgaradi	Masalan, badiiy tarjimada madaniy elementlarga ko'proq e'tibor; ilmiy tarjimada terminologiya va aniqlik ustuvor

Badiiy tarjimaga o'rgatish jarayonida chuqur metodik yondashuv va til hamda madaniyat kompetensiyalarining uyg'unlashuvi bir-birini to'ldiruvchi va ajralmas elementlardir. Badiiy tarjima o'qitishda chuqur metodik yondashuv va til-madaniyat kompetensiyalarini uyg'unlashuvi talabning nafaqat til bilimlarini, balki badiiy va madaniy tafakkurini ham rivojlantiradi, shuningdek tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi. Til va madaniyat kompetensiyalarining uyg'unlashuvi tarjima sifatini faqat texnik jihatdan emas, balki kommunikativ, madaniy va stilistik jihatdan sezilarli darajada oshiradi.

Belgiyalik olim Teo Xermans tarjima va madaniyat munosabatini tadqiq qilgan holda tarjimada tilning faqat lingvistik jihati emas, balki madaniy kontekst va normalar ham muhim ekanligini ta'kidlaydi. Olim fikriga ko'ra tarjima jarayoni faqat til bilimlariga (grammatika, leksika, sintaksis) asoslanmasligi kerak. Madaniy kontekst va ijtimoiy normalar tarjimada katta ahamiyatga ega. Masalan, matnda ishlatilgan urf-odatlar, tarixiy voqealar, madaniy ramzlar va odatlar tarjimaga mos tarzda ko'chirilishi lozim. Xermans fikricha, tarjima madaniy vosita bo'lib, u til va madaniyat o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi. Shu sababli tarjima o'qitishda ham talabalarga lingvistik va madaniy jihatlarni birgalikda tahlil qilish o'rgatilishi muhim.[4]

Darhaqiqat biz olimning fikriga qo'shilgan holda shuni ta'kidlaymizki tarjimada til va madaniyat uzviy bog'liq. Badiiy tarjimada so'zma-so'z ko'chirish o'rniga, matnning lingvistik jihatlari bilan birga madaniy kontekst, ijtimoiy normalar va urf-odatlarni hisobga olish muhim. Bunday yondashuv talabalarga matnni to'liq, tabiiy va talaba uchun tushunarli

shaklda tarjima qilishga yordam beradi.

Kontekstga yo‘naltirilgan tarzda badiiy tarjimani o‘rgatish ya‘ni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda badiiy tarjimani o‘rgatish bu tarjima ta‘limida zamonaviy, metodik va amaliy yondashuvdir. Bu yondashuvda tarjima jarayoni aniq maqsad va kommunikativ vazifa asosida amalga oshiriladi. Tarjima shunchaki so‘zma-so‘z ko‘chirish emas, balki maqsadli auditoriya va tarjima maqsadiga mos matn yaratishdir. Masalan: agar badiiy asarni o‘quvchilar uchun tarjima qilinsa — til oson, obrazlar jonli bo‘lishi kerak; agar ilmiy izohli nashr uchun bo‘lsa — aniqlik, to‘g‘rilik, tarixiy kontekst muhim bo‘ladi.

Badiiy tarjimani maqsadga yo‘naltirilgan tarzda o‘rgatish talabalarni ijodiy fikrlashga o‘rgatadi, tarjimani kommunikativ jarayon sifatida ko‘rsatadi, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantiradi, har xil maqsadlar uchun mos strategiyalarni tanlashni o‘rgatadi. Badiiy tarjimada maqsad quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Maqsad turi	Tarjima yo‘nalishi
Estetik ta’sirni saqlash	Obraz, metafora, ritm va ohangni moslashtirish
Milliy koloritni etkazish	Madaniy ekvivalentlar topish
O‘quvchini qiziqtirish	Tabiiy va ravon tilda qayta ifodalash
Asarning g‘oyasini etkazish	Muallif uslubiga yaqinlikni saqlash

Xulosa qilsak badiiy tarjimani maqsadga yo‘naltirilgan tarzda o‘qitish — bu tarjimon shaxsini faqat til bilish kompetensiyasi doirasida emas, balki tarjimaning ijodiy, madaniy va kommunikativ mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan kompleks ta‘lim jarayoni sifatida qarashni talab etadi. Bu yondashuv tarjimani faqat lingvistik qayta ifoda sifatida emas, balki ikki madaniyat o‘rtasidagi ma’no va badiiy ta’sirni saqlab qolishga qaratilgan ijodiy faoliyat sifatida o‘rganishni nazarda tutadi.

Maqsadga yo‘naltirilgan badiiy tarjima ta‘limi natijasida tarjimon asarning badiiy mohiyatini chuqur anglay oladi, madaniy moslashtirish va interpretatsiya usullarini amalda qo‘llaydi, tarjima strategiyalarini kommunikativ va estetik maqsadlarga mos ravishda tanlaydi. Shu bilan birga, unda ijodiy yondoshuv, estetik did va kasbiy mas’uliyat kabi muhim shaxsiy-kasbiy sifatlar rivojlanadi.

Badiiy tarjimani maqsadga yo‘naltirilgan tarzda o‘rgatish — bu tarjimonni nafaqat til va leksik-stilistik ko‘nikmalar bilan ta‘minlash, balki uning fikrlash doirasini kengaytirish, intermadaniy muloqotda badiiy obraz va ma’noni qayta yarata olish salohiyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli ta‘lim jarayonidir.

Bunday yondashuvda tarjimon asarning janriy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish, obrazlar tizimini madaniy kontekstda talqin etish va estetik ta’sirni saqlab qolish kabi ko‘p qirrali vazifalarni bajarishga o‘rgatiladi. Shu orqali u nafaqat matn ichidagi ma’noni, balki asar orqali yetkazilayotgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydi hamda ularni boshqa til muhitida mos ravishda qayta ifoda etadi. Maqsadga yo‘naltirilgan o‘qitish usuli natijasida tarjimon shaxsida filologik bilish, madaniy kompetensiya va ijodiy tafakkur

integratsiyasi ta’minlanadi. Bu esa uning kasbiy yetukligi, mustaqil tahlil qilish qobiliyati va estetik sezgirligini kuchaytiradi.

Shuningdek, bunday ta’lim modeli zamonaviy tarjima nazariyasidagi funksional va kommunikativ yondashuvlarga tayanadi hamda badiiy tarjimani faqat natija emas, balki ijodiy jarayon sifatida o’rganishni nazarda tutadi. Natijada tarjimon nafaqat original asarni qayta yaratadi, balki yangi madaniy makonga moslashtirilgan, lekin ruhan va usluban sodiq badiiy mahsulotni yarata oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Munday, J. (2016). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications*. Routledge.253p
2. Koller, W. (1995). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications*. St. Jerome Publishing.384p
3. Omar Ali Fraihat. *Towards an inclusive mould of translation and interpretation requisite competence*. Universiti Sains Malaysia (USM), Penang, Malaysia
4. Theo Hermans. (1985). *The Manipulation of literature studies in literary translation*. Published by Croom Helm.249p
5. Z. Yang (B)Soochow University, Suzhou, D. Li University of Macau, Macau SAR, China *Translation Competence Revisited: Toward a Pedagogical Model of Translation Competence*. *Advances in Cognitive Translation Studies* (pp.109-138)
6. *Journal on English Language Teaching and Learning, Linguistics and Literature* Vol. 6 No. 2 (2018): IDEAS: Djamereng & Rusni, UIN Alauddin Makassar, Indonesia/  
*Translation study: How crucial is cultural knowledge for students as the translators?*

## **XVI-XVII ASRLARDA BUXORO XONLIGIDA VALIAHDLIK KURASHLARI**

**Nurmuxammadov Sharofitdin Shermaxammad o’g’li**

Sarboon universiteti “Filologiya va ijtimoiy fanlar”  
kafedrasida katta o’qituvchisi

#### **Annotatsiya**

*Maqolada Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniylar sulolasi shahzodalarining valiahdlilik shahri bo’lgan Balxga egalik qilish tarixi hamda bu shahar uchun kurashlari tahlil qilingan. Shuningdek, shaharning Buxoro xonligi ma’muriy-siyosiy ahamiyati mavjud manbalar asosida tahlil etilgan.*

*Kalit so’zlar: Shayboniy, ashtarxoniy, shahzoda, valiahd, xon, taxt, kurash, Abdulmo’min, Vali Muhammadxon, Nodir Muhammadxon, Balx.*

### **Абстрактный**

*В статье анализируется история владения городом Балх, который являлся наследственным городом принцев династии Аштарханидов, правивших в Бухарском ханстве, а также их борьба за этот город. Кроме того, на основе имеющихся источников рассмотрено административно-политическое значение города в Бухарском ханстве.*

*Ключевые слова: Шейбанид, Аштарханид, принц, наследный принц, хан, трон, борьба, Абдулмумин, Вали Мухаммадхан, Надр Мухаммадхан, Балх.*

### **Abstract**

*This article analyzes the history of the Ashtarkhanid dynasty princes who ruled the Bukhara Khanate, their possession of Balkh as the city of the heir apparent, and their struggles for this city. Additionally, the administrative and political significance of the city within the Bukhara Khanate is examined based on available sources.*

*Key words: Shaybanid, Ashtarkhanid, prince, heir apparent, khan, throne, struggle, Abdulmo’min, Vali Muhammad Khan, Nadr Muhammad Khan, Balkh.*

Ma’lumki, O’rta Osiyoning janubiy o’lkalari XVI-XVII asrlar davomida mazkur davrning uch yirik mamlakati: Buxoro xonligi, Eron safaviylari va Boburiylar imperiyasi o’rtasidagi siyosiy jarayonlarda asosiy kurash maydoniga aylangan edi. Ayniqsa, Balx shahri juda muhim o’ringa ega bo’lib, ushbu omilni inobatga olgan ashtarxoniy hukmdorlar odatda, shahar boshqaruviga eng yaqin shaxslarni, valiahd shahzodalarni tayinlashar edi. Shuningdek, Balx shahri – shayboniylar qadim va o’rta asr davlatlarida ma’muriy markaz vazifasini bajarib kelgan bolsa, shayboniy Abdulloh Bahodirxon (1583-1598) davridan boshlab valiahd boshqaruvidagi shahar maqomiga ega bo’ldi.

Biroq ashtarxoniyalar sulolasidan bo’lgan Buxoro xoni Nodir Muhammadxon davrida davlatchilik asoslari zaiflasha boshlaydi. U davlatni boshqarishda akasi Imomqulixon erishgan yutuqlarni takrorlay olmadi. Xususan, u xonlik hududlarini o’z o’g’illari va nabiralariga suyurg’ol qilib taqsimlab berdi. Xususan, Abdulazizga Samarqand, Xusrav Sultonga Badaxshon va Qunduz, Subhonquli Sultonga Balx, Qutlug’ Muhammad Sultonga Hisor, Abdurahmon Sultonga Shibirg’on va Andxo’y, nabirasi Qosim Sultonga Huzor, jiyanlari Muhammadyor Sultonga Shahrisabz, So’fi Sultonga Talixon hududlarini boshqarish huquqi beriladi [2, 264]. Bu esa markaziy hokimiyatning kuchsizlanishiga olib keladi.

Taxtdan ag’darilgan xon Balxga boradi va Hind shohi Shoh Jahondan yordam so’raydi. Hukmdor esa o’z o’g’illari Avrangzeb va Murodbaxshni Balxni bosib olish uchun yuboradi. Ular Nodir Muhammadning o’g’li Xisrov Sultonni mag’lub etib, Hindistonga asir qilib yuboradilar. Bundan xabar topgan Nodir Muhammad Shibirg’on va Marv orqali Eronga, Abbas II huzuriga qochishga majbur bo’lgan. Eron hukmdori Shoh Abbas II uni yuksak ehtirom bilan kutib olgan. Manbalarda aytilishicha, shohning o’zi a’yonlari bilan shahardan ikki soatlik yo’lga chiqib, Buxoro xonini a’lo darajada kutib olgan va a’lo navli ot sovg’a qilib, unga o’tqazgan holda shaharga olib qaytgan. Abbas va Nodir Muhammad shaharga kiringach, Buxoro xoni sharafiga tantana va had-hisobi yo’q mushakbozlik o’tkazilgan [2, 127]. Nodir Muhammadxon ikki yarim yil Eronda yashaganidan so’ng, shoh unga katta miqdorda

qo’shin berib, Balxni qaytib egallashiga ko’maklashadi [2, 26-127].

Nodir Muhammadning Hindiston bilan aloqalarni yo’lga qo’yishi Balx hokimi bo’lgan davrda boshlangan. Xususan, shu davrda Hindiston shohi Shoh Jahon (1627-1658) bilan elchilik aloqalarini yo’lga qo’ygan. U o’z elchisi Vaqqos Hojini 1632-yilda Hindistonga yuboradi. Bunda javoban hind shohi ham Tarbiyatxon boshchiligidagi elchilar missiyasini Nodir Muhammad huzuriga yuboradi [10, 170].

Abdulaziz 1613-yilda aprel oyida Balxda tug’ilgan bo’lib, bu davrda otasi Nodir Muhammad Balx hokimi edi. Abdulazizxonning onasi Jo’ybor Xojalardan birining qizi bo’lgan Abdurahim Xojaning qizi Poshsho oyim edi [14, 39]. Abdulazizxon otasi nazoratida 1626-yildan Xuttalon viloyatini boshqara boshlagan bo’lsa, 1630-1642-yillar oralig’ida Balxning g’arbiy tumanlarini idora qilgan [13, 49]. 1642-yilda Nodir Muhammadxonga akasi Imomqulixon taxtni qoldirgandan so’ng, yangi xon mamlakatning barcha hududlarini o’z og’illariga suyurg’ol sifatida boshqarishga in’om etadi. Shunday sharoitda Abdulazizxon ham quruq qolmaydi. Unga xonlik markaziy hududlaridan biri bo’lgan Samarqand hokimligi topshiriladi [2, 164].

Abdulazizxon hukmronlik davri faqatgina tashqi dushmanlarga qarshi hujum bilan emas, balki o’z birodarlari bilan ham hokimiyat uchun kurash bo’lgan o’ziga xos bir davr sifatida tarixda qolgan. Abdulazizxon ukasi Subhonquli rasmiy jihatdan valiahd den e’lon qilinib, Balx viloyatida hokimlik qilsa-da, Abdulazizxon bunga rozi bo’lmagan va ukasidan bu maqomni tortib olish uchun yana bir ukasi Qozim Sultonni Balx ustiga yuborgan. Shuni ta’kidlash joizki, Qosim Sulton shoirtabiat va ijodkor shahzoda bo’lib, harb ishiga mohir bo’lmagan. Buning natijasida, u Subhonqulixon elchilaridan biri tomonidan qatl etilgan [2, 128]. Shahzodalar o’rtasidagi bunday kurashlar natijasida Subhonquli tomonidan yana bir birodari – Qutlug’ Sulton ham halok etilgan edi [4, 125].

Subhonqulixonning Iskandarxon, Mansurxon, Ibodullaxon, Muhammad Siddiqxon, Abdulqosim sulton, (hammasi Balxda dafn etilgan), Ubaydullaxon, Asadulla sulton va Abulfayzxon ismli o’g’illari bo’lgan (Mazkur shahzodalarning ayrimlari ismiga “xon” unvonining qo’shilishi shayboniylar sulolasida bo’lgani kabi ularning Buxoro yoki Balx taxtiga o’tirganligi bilan bog’liq. “Sulton” esa, taxtga o’tirish nasib etmagan sulolaning barcha vakillariga nisbatan qo’llanilgan.). Shulardan dastlabki oltitasi Subhonqulixon tirikligidayoq vafot etgan edi [12, 38].

1681-yilda Abdulazizxon taxtdan taxtdan voz kechadi. Bunga bir necha sabablar bor edi. Birinchidan, uzoq davom etgan Xiva xonligi bilan urush xonning tinka-madorini quritadi. Bundan norozi qatlam ham ko’payib ketgan edi. Ikkinchidan, o’z ukasining doimiy ravishda akasi bilan kelishmovchiliklari edi. Ukasi Subhonqulixon otasi 1651-yil Balx hokimi bo’ladi va Abdulazizxon bilan xonlik taxti uchun kurash olib boradi. Ikki o’rtada sulh 1658-yilda xonning ustoz Abdulg’afforxo’ja vositachiligida tuziladi. Unga ko’ra, Subhonqulixon akasining hokimiyatini tan oladi. Evaziga u valiahd deb e’lon qilinadi, va Balx hokimligini qonuniylashtiradi [2, 268], lekin xutba ham, tanga ham Abdulazizxon nomi bilan bezatildi [4, 128].

Subhonqulixon oliy taxtni egallamasdan oldin, Balx taxtida o’tirgan paytidanoq Xorazm xoni Abulg’ozi Bahodirxon bilan yaxshi munosabat o’rnatishga hakarakat qilgani

ma’lum [9, 27]. Uning yordamida Buxoro taxtini egallashga umid bog’lagan. “Shajarai turk” asarida keltirilishicha, u hatto Abulg’oziyxon huzuriga Buxoroni egallashini so’rab elchi yuborgan: “... nogoh Balx xoni Subhonqulixon din elchi keldikim, akam Abdulazizxon qasd qilgan ermishkim, meni o’lturgay, taqi Balxni ham olgay, emni mening otam va akam sizsiz. Mening sizdan o’zga pushti panohim yo’q. Agar siz aning birlan yov bo’lib Buxoroni chopmasangiz, ul kelib Balxni ham olur va meni begunoh o’lturur”, teb. Ammo Subhonqulixon Abulg’oziyxonning inilari Sharif Muhammad sultonning qizini olib erdi. Xoni jannat makon (Abulg’oziga) g’a kuyov erdi. Ul sabab bu so’zlarni aytib yuborib erdi” [1, 185]. Yuqoridagi jumladan anglashiladiki, Subhonqulixon Xorazm xoni Abulg’ozixonga kuyov bo’lgan va shu orqali ittifoq iplari mustahkamlangan.

Subhonquli Abdulazizxon unga taxtni topshirganiga qadar, ya’ni 1651-1681-yillar davomida Balx va Badaxshon hududlarini boshqaradi.

Garchi Subhonqulixon xonlikni birlashtirishga harakat qilgan bo’lsa-da, ammo Balx mojarosi doimiy uni tashvishga solib keldi. Aynan, shuning natijasida bir nechta o’g’illari birodarkushlik qurboni bo’ldi. Keyinchalik, Balx hokimi etib tayinlangan Mahmudbiy bilan ham bir qancha qonli urushlar olib bordi. O’zaro urushlardan so’ng Balx hokimi Mahmudbiyga yon berishga majbur bo’ldi va nabirasi Muhammad Muqimxonni Balxga noib sifatida yubordi [15, 174-175].

1681-yil xonlik taxtiga o’tirgan Subxonqulixon mamlakatdagi ichki nizolarni bartaraf etish barobarida o’zidan so’ng taxtga o’tiradigan valiahdni tayinlashi ham kerak edi. Uning bir nechta o’g’illari bo’lib, bular: Iskandarxon, Abulmansur sulton, Ibodulla sulton, Siddiq Muhammad sulton, Ubaydulla sulton, Abulfayzxonlardir [7, 279-280]. Xonlik an’anasiga ko’ra, valiahd Balx viloyati hokimi bo’lishi kerak edi. Bunday sharafiga dastlab, Iskandarxon erishadi va Amudaryodan janubga o’tib Balx viloyatini idora qilishga kirishadi [4, 136]. Lekin uning hukmronligi uzoqqa bormadi. Bunga sabab 1683-yilda akasi Abulmansur sultonning ishonchli odami Mavzun Suray Iskandarxon ovqatiga zahar aralashtiradi, natijada u vafot etadi. Bu vaqtda Iskandarxon endigina 28 yoshga kirgan edi [8, 118].

Shu jarayonda Subhonqulixonning yana bir o’g’li siyosat maydonida bo’y ko’rsata boshladi. Bu shahzoda Siddiq Muhammad bo’lib, u ham kelajak taqdiri uchun kurashga qo’shib, dastlab akasi bilan g’oyaviy raqobatga kirishgan bo’lsa, keyinroq esa asosiy maqsad – taxtga da’vogar sifatida ochiq kurasha boshlagan [15, 165-175]. Siddiq Muhammad dastlab o’z oldiga akasi Abulmansurning olib borgan siyosatidan norozi beklarni yig’a boshlagan va buning natijasida Abulmansurni ag’darish ishi bo’yicha fitna guruhi shakllanadi [7, 279]. Abulmansur ammasi Shamsiya bonu xonimning holidan xabar olish uchun borayotgan vaqtda bir guruh fitnachilar tomonidan o’ldirildi. Bu vaqtda Abulmansur atigi 22 yoshda bo’lgan edi [8, 121-122]. O’z-o’zidan ayon bo’ladi-ki, endi Balx hokimi bo’lish navbati Siddiq Muhammadga yetgan edi va shunday bo’ladi ham. 1683-yildan boshlab u Balxni mustaqil idora qila boshlaydi [15, 165]. Siddiq Muhammadning Balxda yuritayotgan siyosati otasi Subxonqulixonning noroziligiga sabab bo’la boshlaydi. Chunki u o’ta ketgan shuhratparast bo’lib, ba’zan otasiga ham bo’ysunishni istamagan. Hatto, Xiva xoni Anushxon (1663-1686) Movarounnahrqa qarshi yurish qilganda, Subhonqulixon o’z o’g’li Siddiq Muhammaddan harbiy yordam so’raganida unga yordam bermaydi [4, 136]. Shuningdek, u otasining

ruxsatisiz Hindistonga elchi yuborgan va bu holat Subhonqulixon ko'ngliga g'ulg'ula slogan [15, 166]. Bundan tashqari, Balxda o'z xohishicha siyosat yurgizib, xonlikning ba'zi e'tiborli amir va ulamolariga tazyiq ham o'tkazadi. Vaziyatning chigallashib ketayotganini tushungan Subhonqulixon o'g'lining jilovini tortib qo'yish maqsadida 1685-yilning kuzida Balxga qarshi yurish qilib, shaharga kiradi va Siddiq Muhammad hamda uning tarafida bo'lgan fitnachilar qo'lga olinib, barchasi o'z jinoyatlari uchun jazoga mahkum etiladi. Balxlik tarixchi Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, Subhonqulixon o'g'li Siddiq Muhammadni zindonga tashlashni buyuradi va 3 oy davomida zindonda yotgan Siddiq Muhammad bezgak kasaliga chalinib 21 yoshida bu dunyodan ko'z yumadi [8, 138-139]. Lekin, buxorolik muarrix Muhammad Amin Buxoriyning yozishicha (1700), Subhonqulixon o'g'lini boshqa fitnakorlar qatori qatlga hukm etgan [9, 80].

Birin-ketin to'rt o'g'lidan ayrilgan Subhonqulixon bu jarayonlardan xulosa chiqarib, Balx noibligiga o'zining ishonchli vakillarini tayinlaydi. Dastlab Biy O'taliq (xonlikda shahzodalar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi mansab, ota vazifasini bajaruvchi), u vafot etganidan so'ng 1687-yilda Mahbudbiy otaliq (keyinchalik, Muqimxonning otalig'i) Balxga noiblik qilgan [4, 137]. Subhonqulixon Balxni bu yerda ilgari hokim bo'lgan marhum o'g'li Iskandarxonning farzandi Muqimxonga bergan bo'lsa-da, aslida uning otalig'i Mahmudbiy tomonidan boshqaruv amalga oshirilar edi. Keyinchalik, Subhonqulixon vafot etgach, Muqimxon Buxoro taxtiga chiqqan amakisi Ubaydullaxon (1702-1711)ning hokimiyatini tan olmadi va o'zini mustaqil deb e'lon qildi. U 1702-1707-yillarda Balx xonligining hukmdori bo'lgan [9, 236].

Subhonqulixon vafot etganda Ubaydulla sulton va Asadulla sultonlar yosh yigitlar bo'lib, Ubaydulla sulton ham akalari yo'lidan borib, Balxga va bu orqali valiahdlikka da'vogar bo'lgan. Asadulla sultonni yirik amirlardan Javshan qalmoq orqali fitna qurboni qilgan [12, 38]. Albatta, valiahdlikdan o'z ukasini chetlatishda suyukli ayoli Bibi Poshshoning roli bo'lishi, ehtimol. Chunonchi, mamlakat boshqaruvida uning kuchli ta'siri sezilgan [8, 227]. Bu ayoldan Ubaydullaxon Abdulla sulton ismli farzand ko'rgan [12, 38].

Xulosa qilib aytish mumkinki, XVI-XVII asrlarda o'zbek davlatchiligi tarixida valiahdlik tizimi, valiahdlik kurashi jarayonlari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Davlat boshqaruv shakliga ko'ra monarxiya hisoblangan o'zbek xonliklarida, xususan Buxoro xonligida hukmdorning farzandlari o'rtasida valiahdlik maqomi uchun kurash jarayonlari doimiy tus olib kelgan va bunda O'rta Osiyoning yirik strategik shaharlari, jumladan, Balx muhim rol o'ynagan.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchilik tarixi. T.: Sharq, 2001.
2. Alekseyev A.K. Politicheskaya istoriya Tukay-Timuridov.-S.-Peterburgs: S.-Peterburgskogo Universiteta 2006.
3. Armiy Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. 2-qism. T.: Info capital group, 2019.
4. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O'qituvchi, 1994.
5. Mir Muxammad Amin Buxoriy. Ubaydullaname / Perevod i primechaniya A.A.Semyonov. – T.: Fan, 1957.

6. Mirzo Salimbek. Kashko’li Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi N.Yo’ldoshev. Buxoro:Buxoro nashriyoti, 2003.
7. Muxammed Yusuf Munshi. Mukim-xanskaya istoriya. Pervod s tadjiskogo, predisloviye, primechaniya i ukazateli Semyonov A.A. – Tashkent: Izdatelstvo Akademii nauk Uzbekskoy SSP, 1956.
8. Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at-tavorix. / Fors tilidan tarjima, kirish va izohlar muallifi D.Yu.Yusupova va U.Hamroyev. T.: Fan, 2020.
9. Sangirova D. Bir sulola shajarasi haqida. // Sharq mash’ali. №2. T., 2018.
10. Sultonov F., Bozorboyev F. O’zbekiston hukmdorlari. T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007.
11. To’rayev H. Ashtarxoniy Abdulazizxon. // Buxoro mavjlari. 4-son, 2008.
12. Xoja Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. / Fors-tojik tilidan tarjima, kirish va izohlar muallifi J.Esonov. T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.

## YANGI O‘ZBEKISTONDAGI ONA-OTALARNING MEHR VA MUHABBATI MA’NAVIY-TARBIYAGA TA’SIRI

**Sultonova Nodira Ergashovna**

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Tarix va Ijtimoiy fanlar” kafedrasida f.f.d (PhD), dotsent

### **Annotatsiya**

*Maqolada qadim zamonlardan to bugungi kungacha milliy-ma’naviy tarbiyaning sharq olimlarimizning asarlarida aks etishi va bu asarlarni g’arb olimlarimizning asarlari bilan qiyosiy taxlil qilish jarayonini o’rganish. Oilada farzandlarni milliy ma’naviy tarbiyalashning milliy va ma’naviy omillarini millat urf-odatlarini, udumlarini, an’analarining yosh avlodni tarbiyalashda mehr va muhabbatning o’rni va ahamiyatini yoritish dolzarb masala ekanligi ta’kidlanadi. Xalq hayotida mavjud bo’lgan tartib va qoidalarning oilada barkamol avlod tarbiyasiga ta’siri.*

*Kalit so’zlar: rasional, irrosional, antropologiya, oila, nikoh, mehr, sevgi, muhabbat, axloq, kitob, inson, insonparvarlik, vatanparvarlik, sabrlilik, manmanlik, yaxshilik, ta’lim tizimi, odoxloq, milliy qadriyatlar.*

### **Абстрактный**

*В статье исследуется отражение национально-духовного воспитания в трудах наших восточных учёных с древнейших времён до наших дней и проводится сравнительный анализ этих трудов с трудами наших западных учёных. Подчёркивается актуальность освещения национально-духовных факторов национально-духовного воспитания детей в семье, обычаях, традиций народа, роли и значения любви и привязанности в воспитании подрастающего поколения. Рассматривается влияние существующих норм*

*и правил в жизни народа на гармоничное воспитание поколения в семье.*

*Ключевые слова: рациональное, иррациональное, антропология, семья, брак, доброта, любовь, привязанность, нравственность, книга, человек, гуманность, патриотизм, терпение, гордость, благость, система образования, этикет, национальные ценности.*

### **Abstract**

*The article studies the reflection of national-spiritual education in the works of our Eastern scholars from ancient times to the present day and the process of comparative analysis of these works with the works of our Western scholars. It is emphasized that it is an urgent issue to highlight the national and spiritual factors of national spiritual education of children in the family, the customs, traditions of the nation, the role and importance of love and affection in raising the younger generation. The influence of the existing rules and regulations in the life of the people on the harmonious upbringing of the generation in the family.*

*Key words: rational, irrational, anthropology, family, marriage, kindness, love, affection, morality, book, human, humanity, patriotism, patience, pride, goodness, education system, etiquette, national values.*

Dunyoda mehr va muhabbat omili nafaqat sub’ektiv individual, balki juda katta ma’naviy, ijtimoiy-antropologik muammolardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mehr va muhabbatni madaniy, ijtimoiy-antropologik munosabatlarning poydevori deb hisoblash mumkin. Jamiyatda tartibsizlik, deviatsiya, nizolar, jinoyatchilik, barcha oqibatsizliklar mehr va muhabbat omilining zaiflashishi yoki yo‘qolishi bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlash lozim. Ona Vatanga, ijtimoiy ma’naviy, tarixiy- madaniy merosga, oila va farzandlarga, ayol va ota-onaga mehr va muhabbat kabi ijtimoiy- madaniy, gumanistik g‘oyalarni doimo qadriyat sifatida qadrlab kelingan. Mehr va muhabbat omilini ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida jamiyatga muntazam singdirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning «Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqiy tarix shuki, o‘zini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan, vaqtni – imkoniyatga, imkoniyatni yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantira olgan xalq – buyuk xalqdir. Bunday xalq, hech shubhasiz, hayotni ham, ijtimoiy ma’naviy muhitni ham o‘zgartira oladi, ko‘zlagan murod-maqсадlariga albatta erishadi.

Buyuk faylasuf olimlarimiz: Kasal bolani davolashning eng oson yo‘li bu- onaning mehr va muhabbat antropologiyasini asos qilib ko‘rsatadilar: Bola kasal bo‘lganida onaning ko‘ngliga go‘zal hayot, quvonchli daqiqalar sig‘may qoladi. Bolani davolash uchun, sog‘lom qilish uchun qimmat narxli dorilarga pulini ham, shifokorlar qabuliga tushish uchun vaqtini ham ayamaydi. Bu holat ayolning qalbidagi inski (his-uyg‘usi) bo‘lib, bolani ona mehri ham davolashi mumkin. Buning uchun faqat mehrga to‘la ong, tafakkur, qalb, yurak amri talab etiladi, xalos. Afsuski 21-asrda ona mehri va muhabbatini topish qiyin va dolzarb bo‘lib bormoqda. Mehr va muhabbat antropologiyasida «ona mehri segmenti» quyidagicha:

Birinchi dan, Ona mehri vitamini. Ushbu oddiy so‘zlar bilan ona bola organizmini foydali vitaminlar va minerallar bilan to‘ydira oladi: «Sen mening hayotimdagi eng aziz va kerakli insonimsan. Sen men uchun doimo qadrlisan. Men sensiz bir kun ham yashay olmayman. Dadang va Onang seni juda sevadi va yaxshi ko‘rib qadrlaydi!» Farzandning ota-onasi mehr

va muhabbatining oshib borishiga olib keladigan ijtimoiy-ma’naviy jarayondir.

Ikkinchidan, Onaning mehr va muhabbat terapiya. Yengil va o’tkinchi kasalliklarda davo vositasi: «Sen juda kuchlisan va sog’lom insonsan. Sening ong tafakkuring, qalbing, yuraging, tanang va vujuding kuchli va sog’lom shakllangan. Sen yaxshi taom bilan ovqatlanasan va sog’lom muhit asosida voyaga yetib rivojlanasan. Sen juda baquvvat sog’lom bo’lib, kam kasal bo’lasan.» deya bolani hayotga bo’lgan mehr va muhabbatini oshirish va kuchli sog’lom fikrlash, ezgu g’oyalar asosida farzandini ideologiyasini, dunyoqarashini, fikrlash g’oyalarini, maqsadlarini qo’llab-quvvatlash ijtimoiy-antropologik jarayondir.

Uchinchidan, Onaning farzandiga mehr berishi va muhabbatini ruhiy-psixologik yondashuvi. Bolaning psixikasi so’nmasligi uchun unga ozuqa yani motivatsiya berib turish lozim. «Sen yoqimliva shirin bolasan. Yaxshi tinch orom olib, uxlaysan. Asabiy va jahldor emassan. Sabr-toqatli va aqlli va farosatli ilmga chanqoq bolasan. Nutqing ravon tafakkur qilishda ma’noli yaxshi fikrlaysan. Ong va miyangning qabul qilishi yaxshi ishlaydi. Senda hamma holat yaxshi shakllangan», deb ona o’z bolasiga psixologik kuch beradi.

To’rtinchidan, onaning mehr va muhabbati bola uchun kuchli quvvat va zarba. Bola qattiq bemor yoki kasal bo’lganida dori vositalaridan tashqari onaning so’zlari, fikrlari, mehr va e’tibori, mehribonliklari nihoyatda kerak. Ona o’zining shirin so’zu-mehribonligi bilan kasallikka zarba berishi lozim. «Seni juda yaxshi ko’raman. Sen meni mehribon farzandim, bizga seni borligingni o’zi baxt deb erkalatishimiz, bolada men oilam ota-onam uchun kerakli ekanligini, uning qalbida hayotga bo’lgan ishonch tuyg’usini shakllantiradi. Kasalliklaringni ollohim yo’q qiluvchi va shifo beruvchi zotdir. Qiynalganlaringda ollohim senga sabr beradi va barcha qiyinchiliklarni unutib yuborasan bolam deb» unga hayotga bo’lgan qiziqishini orttiradi. Bola ota-onasidan hadeb tanbeh, baqiriqlar eshitaversa, kasal bo’lishi oson bo’lib qoladi. Ota-onasi ishonmagan, qo’rqitgan, koyigan, koproq urushgan bolani kasallikni yengib, tuzalishi qiyinroq kechadi.

Beshinchidan, «Ona bolasiz bo’lmas, bola onasiz yashay olmas» formulasini ishlab chiqish: Ota-ona bolaga charchov, alam va ranjish ko’zlari bilan qarasa, nafrat bilan nigoh tashlasa, bolaning hayotida omadsizliklar va kasalliklar, yomonliklar ko’p yuz beradi. Bu tasdiqlangan ijtimoiy-psixologik faktor. Bolalar ota-ona bilan birga yashashi, o’sishi, voyaga etishi, hayot jarayonida baxtlilikni keltirib chiqaradigan ijtimoiy- madaniy antropologik jarayon. Har kuni bolaga kamida uch marta ota-ona mehrga to’la shirin, go’zal so’zlarni aytishi kerak. Bola onasining gaplarini ongida tafakkur qiladi, ona mehrini his qiladi, barcha so’zlarni tahlil qilib, oxirgi qarorni qabul qilishi kerak. Kasal bo’lgan bolaga esa, bundan 10 barobar ko’proq mehr, muhabbat, e’tibor, shirinsuxanlik talab etiladi. Bolaga har doim, «Men seni sevaman, juda yaxshi ko’raman, sen men uchun qadrlisan», deb yurishga odatlaning bu holat oilalardagi farzand tarbiyasida mehr va muhabbat antropologiyasi sifatida go’zal hayotni bag’ishlaydi.

Ijtimoiy-ma’naviy va madaniy munosabatlar tarixida ko’plab mutafakkirlar, olimlar mehr tushunchasiga ijobiy omil sifatida e’tibor qaratganlar. Bu tushuncha jamiyat barqarorligini asosiy ustuni sifatida, sotsum hayotning mustahkamligi o’ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan. Qadimiy yodgorliklar va yozma bitiklar, manbalar hamda og’zaki qadriyatlar, xalq folkloridan boshlab, to hozirgi davrgacha bunga guvohlik beruvchi manbalar, asarlar mavjuddir. Sharq

xalqlari mehr tushunchasiga hamisha alohida e’tibor qaratib kelganlar. Xususan, yerda mavjudlikning asosi bo’lmish quyoshni qadimda «Mehr» deb atashgan. Hijriy shamsiy yil hisobida 21 sentyabrdan 22 oktyabrgacha bo’lgan oy nomi ham «Mehrmo», ya’ni mehr oyi deb nomlangan. Ushbu taqvimdagi barcha oylarning 16 sanasi «Mehr kuni» sifatida nishonlangan. Islomda Qur’oni karim kitobini ochuvchi birinchi so’z ham bevosita «Mehr» so’zi bilan bog’liq, ya’ni «Mehribon va rahmli Olloh nomi bilan (boshlayman)» .

Mehr tushunchasiga Imom al-Buxoriy , Abu Rayhon Beruniy , Abu Ali ibn Sino , Zakariyo ar-Roziy , Abuabdulloh Ro’dakiy , Shahobiddin A’maq Buxoriy , Abdurahmon Jomiy , Husayn voiz Koshifiy , Mahmud az Zamaxshariy , Jaloliddin Rumiy , Alisher Navoiy , Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa buyuk mutafakkirlar o’zlarining asarlarida bayon etib, ularni ilmiy va nazariy izohlab o’tadilar.

Diniy ta’limotlarda ham mehr tushunchasiga alohida e’tibor qaratib, uni tarbiyaning muhim vositasi sifatida talqil qilishgan. Ayniqsa bu borada Iso, Budda va Muhammad SAV diniy ta’limotlaridan juda ko’plab misollar keltirish mumkin.

Mehr tushunchasi qadriyat, urf-odat, an’ana hatto bayramlarimizda ham o’z aksini topganligini kuzatishimiz mumkin. Qadimdan yurtimizda kuz faslida nishonlanadigan katta bayramlardan biri «Mehrjon» deb nomlangan.

Beruniy bu ikki bayramni bir-biri bilan taqqoslab, quyidagi yarim hazil rivoyatni keltiradi: «Bir guruh kuzni bahordan ortiq bilganidek, ular «Mehrjon»ni «Navro’z»dan ortiq bilganlar. Buni isbotlashda Iskandar Arastudan, u ikki kunning qaysisi afzal deb so’raganida, uning: «Ey podshoh, bahorda hasharotlar paydo bo’la boshlaydi, kuzda esa ular yo’qolib ketadi. Demak, shu jihatdan kuz (bahordan) afzal», -degan javobiga asoslanadilar» .

Ota-bobolarimiz har bir faslning kirishi bilan bog’liq holda umumxalq bayramlarini nishonlashgan. Jumladan, bahor faslida kun bilan tun tenglashgan 21 martda «Navro’z» umumxalq bayrami, yoz faslida eng uzun kun bo’lgan 21 iyunda «Angom» umumxalq bayrami o’tkazilgan. Shuningdek, kuzgi kunu tun tengligi 21 sentyabrda «Mehrjon» umumxalq bayrami hamda qishda eng uzun tun 21 dekabrda «Sada» bayrami nishonlangan. Ushbu umumxalq bayramlarining o’ziga xos tadbirlari bo’lib, ular haftalarga bo’lingan holda oy davomida o’tkazilgan. Bayramlarda turli kasb, hunar egalari uchun maxsus tadbirlar tashkil etilgan.

Umri (Mermoh) oyining 16-kunida «Kichik Mehrjon» va 21-kunida «Katta Mehrjon» bayrami o’tkazilgan. «Mehrjon» bayramini podshohlar va Eron mamlakati shahar aholisi butun oy davomida nishonlagan. «Mehrjon» bayramini o’tkazishda ham xuddi Navro’zdagidek turli tabaqaga mansub kishilar uchun 5 kundan ajratilgan .

«Mehrjon» bayramidan so’ng odamlar qishga tayyorgarlik ko’ra boshlashgan. Movarounnahr va Xuroson podshohliklarida shu kuni otliq askarlarga kuzlik va qishlik kiyim berish rasm bo’lgan.

Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida «Mehrjon» so’zini «quyosh» va «jon sevgisi» degan ma’nolar bilan bog’lab tahlil qilishi bejiz emas, albatta. Chunki eng qadimgi davrlardan ko’pgina ibtidoiy xalqlar qatori Markaziy Osiyo xalqlari ham quyoshga sig’inishgan. Bu haqda yunon olimi Gerodot (milloddan oldingi 490-425 yillarda yashagan) markaziy osiyoliklar «ma’budalardan faqat quyoshni e’zozlaydilar,

unga otlarni qurbonlik qiladilar» , deydi.

«Avesto»ning 10-bobida Mitra (Quyosh tangrisi)ga bag’ishlangan madhiya mavjud. Madhiyadagi so’zlardan ma’lum bo’lishicha, zardushtiyar quyosh va uning tangrisi – «Mitra»ni ilohiy kuch sifatida ulug’lashgan. Qadimgi xalqlar quyoshni borliqdagi eng buyuk kuch, hayot chashmasi, yorug’lik va issiqlik bunyodkori deb bilishgan .

Muhabbat talqinida Hadisi sharifda Oisha onamiz roziyallohu anho nihoyatda taqvoli, obida, o’ta hayoli, pokza nafs, oliymaqom ayol edilar. U zotning hujralariga Rasululloh sollallohu alayhi vasallam, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu va Umar roziyallohu anhu dafn qilinganlar. Hazrati Umar roziyallohu anhu dafn qilinmaslaridan oldin onamiz uylariga kirsalar, ustlaridagi ba’zi liboslarini yechar, boshlaridan hijoblarini olardilar va «Bu qabrda yotganlar erim va otam-ku» derdilar. Qachonki Umar roziyallohu dafn qilingach, uyga kirsalar ham qabrda yotgan Umar roziyallohu anhudan hayo qilib ro’mollarini, hijoblarini yechmaydigan bo’ldilar. Manabu xolat Sharq ayollarining xayosi ibosi, odobini namoyon etadigan xarakat sifatida talqin etiladi.

Oisha onamiz roziyallohu anhoneing hujralari ko’rsatilgan. O’ng tarafdagi qabrlarni aytadigan bo’lsak: o’ng tarafdagi chetdagi qabr ikki olam sarvari Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning muborak qabrlari, uning yonidagi, biroz pastroqdagi Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhoneing qabrlari, uning yonidagi, biroz pastroqdagi Umar roziyallohu anhoneing qabrlari. Chap tarafdagi bo’yra ustidagi joy Oisha onamiz roziyallohu anhoneing o’rinlari. Mo’minlarning onasi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning seviklilarining xonalari, jihozlari, joylarini joylashtirilgan. Onamiz shu xonada yashab, sahobalarga, sahobiyalarga, tobeinlarga, butun ummatga Islomning oilaviy mavzuga tegishli hukmlaridan, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uyda nimalar bilan mashg’ul bo’lishlari, ayollariga qanday muomala qilishlari va boshqa ko’plab hukmlarni bayon qilganlar. Xuddi shu xolatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan Oisha onamiz roziyallohu anho bir idishdan g’usl qilish qoidalarinini o’rgatib o’tadilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shunday odatlari borki, go’shtni avval onamizga berib, keyin onamizning tishlari, so’laklari tekkan joyiga muborak og’izlarini qo’yib, go’shtni tanovul qilganlar. Islomiy din nuqtai nazardan erkakning ayoldagi mexr-muhabbatini ko’rinishi sifatida o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Xuddi shu o’rinda Oisha onamiz kundoshlari yuborgan taomning tovog’ini urib sindirganlarida, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam uylarida mehmon bo’lib turgan sahobalarga «Qani, taomdan olinglar. Onangiz rashk qildi» deganlar.Xuddi shu paytda Abu Bakr Siddiq, Hazrati Umar, Hazrati Usmon, Hazrati Ali, Hazrati Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhum va boshqa sahobalar mehmon bo’lishgan. Ayollarning rashkli mexr-muhabbatini ham yuksak baxolagan inson sifatida qaraladi.

Sharqda o’zbek ayolning mehr-muhabbati taqsinga sazovordir. Bu jumlanı yozishdan avval bu voqeanı juda ko’p ayollarga ta’kidlash, mexr-muhabbatni sadoqatni yozish, xalqqa ibrat qilib ko’rsatish kerakligini aytib, 2010 yil 18 may kuni xizmat bilan bir xonadonga bordim. Marosim tugagach chamasi to’qson yoshli bir onaxon menga: Qizim ko’pni duosi ijobat deyishadi, menga duo olib bergin, – dedilar. Sizga nima deb duo qilaylik deb, – so’radim. Onaxon ko’zlariga yosh olib: Cholim urushdan eson-omon kelsinlar, shuni so’rab bergin, bolam, – dedilar. Qaysi urushni aytyapsiz, 1941 yildagi urushmi? Ha, xuddi o’sha urushga

ketganlar. Haliyam kutyapsizmi, axir 70 yildan oshdi, – desam, onaxon: Nega kutmay, birov o’lganini ko’rmagan bo’lsa, qora xat kelmagan bo’lsa, nikohim bor kutyapman, – dedilar. Bu mo’tabar onaxonning to’yi 1941 yil 30 iyun kuni bo’lgan ekan. To’ying ertasiga kuyov va uning besh nafar ukalarini urushga olib ketishgan. Yosh kelinchak qaynona va qaynotasining xizmatini qilib, halol mehnat bilan kun o’tkazib kelgan. Besh yildan so’ng erining ukalari urushdan qaytib kelishadi, lekin uning turmush o’rtog’idan darak yo’q. Undan hech qanday xat-xabar kelmaydi. Umid bilan kutib yillar suvdek oqib o’tib ketdi. Aka-ukalar uylandilar, farzandli bo’ldilar.

Ular o’zaro kelishib, yillar davomida kelinlik xizmatini sidqidildan ado etgan yangalariga bittadan farzandlarini berishga qaror qildilar. Sabr-bardoshi tog’ddek ayol xizmatlariga yarasha mukofotini oldi. Uch qiz, ikki o’g’illik bo’ldi. Bolalarni uch kunligidan katta qildi, mana vaqt-soat o’tib ularning kenjasi ham ellikka kiribdi. Ha bolam duo olgan omondir, – deb davom ettirdilar onaxon. Ikki o’g’limga qanday qilib uy-joy qilaman derdim, buni qarangki ikki yonimdagi qo’shnilarim, onajon, biz ishdaligimizda bolalarimizni katta qilib berdingiz, yedirib-ichirib yaxshi tarbiyaladingiz. Biz ko’nglimiz xotirjam ishlab yuraverdik. Ishlarimiz yurushib boshqa joydan uy-joy qilib ketyapmiz, bu hovli bizdan sizga hadya bo’lsin, – deyishdi. Ko’zimga yosh olib Alloh taolaga shukrona aytdim. Mana hozir 15 ta nabiram, 30 ta evaram, 10 ta chevaram bor. Mendan baxtli ayol yo’q. Onaxonning bu hikoyasini eshitib hayratda qoldim. Bu haqida kelinidan so’radim. Kelin: «Buvamiz vafot etganlar. Mustaqillik maydonidagi temir daftarda ismlari bor. Lekin bu xaqda buvijonimizga aytolmayapmiz, buni eshitib o’lib qolsalarchi. Ovqat olib o’tiradilar, eshikni qulflatmaydilar, kelib qolsa ocholmaydilar, deb. Ko’cha eshikni o’zlari yarim tunda qulflab kirib, namoz o’qiydilar», dedi. Bu onaxonning vafosiga, sabr-bardoshiga, matonatiga tog’lar ham dosh berolmasa kerak. Ana o’zbek ayolining sadoqati, vafosi, mexr-muxatining ko’rinishi sifatida talqinidir.

Sharq falsafiy-ahloqiy merosida bag’rikenglik (tolerantlik) muhim o’rin tutadi. Falsafa fanlari doktori M. Hojjeva yozadi: «Tolerantlik turli qarash, e’tiqod, jahon madaniyatiga hurmat, umuminsoniy qadriyatlar va urf-odatlarini bag’rikenglik asosida qabul qilishga asoslangan individuallikning aniq namoyon bo’lishidir». Bag’rikenglikda insonning ichki ruhiy holati (uning ongi haqiqatgo’yiligi, ko’tarinki kayfiyati, ishga munosabati, salomatlik darajasi, qiziqishi, ishonchi, xohishsizligi, qo’rquv hissi, ochiq ko’ngilligi, javobgarlikni o’z zimmasiga olishi, ishq-muhabbat kuchliligi. . .) aks etadi». Shuningdek, «tolerantlik umrboqiy qadriyat va an’analarni asrashga, ularni yanada go’zallikka aylantirishga chaqiriqdir. Bu tuyg’u kishini shunchaki olijanob qilib qo’ymaydi, balki uning xulq atvorini, ahloqini, siyosat va ma’naviy pokligini, muqaddas narsalarga bo’lgan munosabatini ko’p jihatdan belgilab, ochib beradi».

To’g’ri, bag’rikenglik tom ma’nodagi mehr va muhabbat emas, balki u mehr va muhabbat tomon tashlangan qadam, kishini ijtimoiy-ma’naviy borliqda, rang-barang madaniyat mavjud muhitda, imoralizm va demokratik qadriyatlar qaror topgan sotsium jamiyatda yashash, samarali faoliyat ko’rsatish kafolatidir. Tolerantlik bo’lmagan muhitda insonlararo muhabbatning bo’lishi qiyin, muhabbat tuyg’usidan mahrum kishilarda bag’rikenglik bo’lmasligi aniqdir.

Sharq falsafiy-ahloqiy merosida esa bag’rikenglik eng avvalo o’zaro hamkorlik, bir-birini hurmat qilish, tushunish, qadrlash ma’nosida talqin etiladi. Mehr va muhabbat ham mazkur ahloqiy qadriyatlarsiz bo’lishi mumkin emas. Demak, mehr va muhabbat barcha axloqiy qadriyatlarni bir nuqtada, maqsadda uyg’unlashtiradi, shu tariqa ularni go’zal, olijanob tuyg’ular darajasiga ko’taradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O’zbekiston.-Toshkent.: O’zbekiston NMIU, 2024. 3-bet.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo’llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF – 87 – sonli Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi “O’zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ – 3808 –son qarori.
4. Maxmud Az-Zamaxshariy. Al-mafassal. –T.O’zR FA Sharqshunoslik instituti. 2007. ( 420-423)–B 54-58.
5. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasini. T.:Cho’lpon,1992. 670 bet.
6. Moziydan taralgan bir ziyo Imom al-Buxoriy.-T.: Sharq, 1998.
7. Abu Rayxon Beruniy. Asarlar –Toshkent. G’afur G’ulom nashriyoti, 1996.
8. Ibn Sina. Izbrannyye filosofskie proizvedeniya. — M.: Nauka, 1980.; Ibn Sina. Danish-name. Kniga znaniya.- Stalinabad, 1957.
9. Abu Bakr ar-Razi. Duxovnaya. meditsina. Dushanbe. «Irfon». 1990.
10. Vohidov S. Buxoriylar bo’stoni. Buxoro nashriyoti. 1994.
11. Am’aq Buxoriy. Devon. Tehron, Furug’iy nashriyoti, 1339 h.y.-18, 246 bet.
12. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. –Kalkutta, 1859.
13. Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan N.Komilov tarjimasini. T., A.Qodiriy nomidagi xalq morosi nashriyoti, 1994, 112 bet.
14. Zamaxshari // Ensiklopedicheskiy slovar Brokgauza i Yefrona : v 86 t. (82 t. i 4 dop.). - SPb., 1890-1907.
15. Qarang: Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma’naviy. “Al-xudo” xalqaro nashriyoti. Tehron, 2004 y.
16. Alisher Navoiy, Mukammal Asarlar To’plami, T.: “Fan”, 2000-yil. 264-bet.
17. Bobur Z.M. Devon. –T.: “Fan” nashriyoti, 1994 yil. 253-bet.
18. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. O’zb.T.: - “Fan”, 1968.

## IQTISODIY TERMINLARNI O’RGATISH METODIKASI: TA’LIMDA INTERAKTIV USULLARNI QO’LLASH

**Djamalutdinova Barno Ramizitdinovna**

Xalqaro Nordik universiteti  
«Chet tillar» kafedrasida katta o’qituvchisi

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada iqtisodiy terminlarni o’rgatish metodikasi hamda ta’lim jarayonida interaktiv usullardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Iqtisodiy terminlarni o’rgatishda an’anaviy yondashuvdan tashqari, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va interaktiv metodlarning afzalliklari ko’rsatib beriladi. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda ularni real iqtisodiy vaziyatlarda qo’llash ko’nikmalarini shakllantirishda interaktiv usullarning o’rni alohida ta’kidlanadi.*

*Kalit so’zlar: iqtisodiy terminlar, metodika, ta’lim texnologiyalari, interaktiv usullar, talabalar, iqtisodiy tafakkur, innovatsion yondashuv.*

Iqtisodiy atamalarni o’qitish metodikasi nazariy ta’limni amaliyot bilan birlashtirish, ko’p qirrali yondashuv asosida real misollar, keys-stadilar, texnologik vositalar va hamkorlikdagi faoliyatni o’z ichiga oladi. Asosiy usullar qatoriga darsdan oldin teskari sinf modeli orqali atamalarni kiritish, terminlar xaritalari kabi lug’at boyitish mashg’ulotlaridan foydalanish, simulyatsiyalar va rolli o’yinlar orqali atamalarni qo’llash hamda global kontekstda tanqidiy fikrlash va ishonchli muloqotni rivojlantirish uchun shakllantiruvchi baholash va loyiha asosida o’qitish orqali tushunishni mustahkamlash kiradi.

Iqtisodiy terminologiyani o’qitish iqtisodiy ta’limda muhim rol o’ynaydi, chunki terminologiya kengroq g’oyalar, nazariyalar va tajribalarni tushunish uchun zamin yaratadi. Hozirgi zamon pedagogikasida atamalarni uzoq vaqt eslab qolish va amalda qo’llash uchun ularni shunchaki yodlashning o’zi yetarli emasligi tobora ko’proq e’tirof etilmoqda. Shu sababli, dunyoning ko’plab ta’lim tizimlarida talabalarni passiv ma’lumot qabul qilishdan ko’ra, o’quv jarayonida faol bo’lishga undaydigan interaktiv usullar joriy etilgan.

Interfaol usullarning asosiy ustunligi terminologiyani mazmunli amaliyot bilan o’zaro bog’lashidir. Jumladan, talabalar bozorni modellashtirganda yoki inflyatsiya bo’yicha guruhli tadqiqotlarda ishtirok etganda talab, taklif yoki iste’mol narxlari indeksi kabi texnik atamalardan foydalanishlari kerak bo’ladi. Shunday qilib, leksika alohida holda o’rganilmaydi, balki hayot bilan bog’liq holda o’rganiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat tushunishni mustahkamlaydi, balki kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo’lgan tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash va muloqot ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Iqtisodiy terminologiya iqtisodiyotni o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u asosiy tushuncha, nazariya va modellarni ifodalovchi maxsus lug’at majmuasini o’z ichiga oladi. Ushbu atamalarni chuqur o’zlashtirish talabalar uchun nihoyatda zarurdir,

chunki ular ilmiy matnlarni to'liq anglash imkonini beradi. Iqtisodiy adabiyotlarning katta qismi, jumladan, darsliklar, ilmiy maqolalar va internet manbalari ingliz tilida chop etilgani bois, talabalarning ushbu matnlar bilan tanqidiy munosabatda bo'lishi uchun o'ziga xos atamalarni yaxshi bilishi lozim. Bundan tashqari, iqtisodiy leksikani puxta o'zlashtirish o'quvchilarning dars jarayonidagi munozara, bahs va ma'ruzalarda faol ishtirok etish qobiliyatini kuchaytiradi, bu esa ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi hamda o'z qarashlarini aniq va ishonchli tarzda ifoda etishlariga yordam beradi. Shuningdek, iqtisodiy terminologiyani bilish talabalarga real hayotdagi iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq keys-stadilar, tahlillar va kasbiy amaliyotlarda o'z bilimlarini samarali qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Ushbu model o'quvchilarga iqtisodiy lug'atni mustaqil ravishda o'zlashtirish imkonini beradi. Darsdan oldin ularga videolar, maqolalar yoki podkastlar tavsiya etiladi, auditoriya mashg'ulotlari jarayonida esa ular yangi o'rgangan so'z boyligini muammolarni hal qilishda yoki munozaralarda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar.

Zamonaviy yondashuvlar baholashning innovatsion shakllarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, formativ baholash jarayonida interaktiv viktorinalar, o'zaro fikr-mulohazalar va o'z-o'zini baholash orqali doimiy ravishda qayta aloqa ta'minlanadi. Portfolioga asoslangan baholashda o'quvchilar iqtisodiy lug'at portfelini tuzib, uni insholar, taqdimotlar va loyihalarda qo'llaydilar. Simulyatsiyalar esa ularga real hayotiy iqtisodiy qarorlar qabul qilish ssenariylarini sinab ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy usullarning ko'plab afzalliklariga qaramay, texnologik to'siqlar va o'qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega bo'lish zarurati saqlanib qolmoqda. Shuning uchun tarbiyachilar kasbiy rivojlanishga ustuvor ahamiyat berishlari hamda ochiq va bepul resurslardan samarali foydalanishlari muhim hisoblanadi.

Kommunikativ yondashuv monologik va dialogik nutq ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi va kontekstda atamalardan o'rinli foydalanishni ta'minlashga yordam beradi. Bundan tashqari, tadqiqot konseptual, semantik, tarmoq va mental xaritalar, denotativ matn xaritalari va Venn diagrammalari bilan bog'liq. Kognitiv xaritalashning bu usullari markaziy tushunchani qayta ko'rib chiqish va uni o'quvchilar tajribasi bilan bog'lash imkonini beradi.

Semantik xarita ma'lum bir tushunchaning leksik xususiyatlarini aks ettiradi va chet tili leksikasini yiriklashtirishda qulay vosita hisoblanadi. Semantik xaritalardan foydalanish atamalar va ularning ortidagi tushunchalar o'rtasida aqliy aloqalarni o'rnatishga yordam beradi. O'quvchilar alohida so'zlarni o'rganmaydilar, balki ularning munosabatlari tizimini o'rganadilar. Bilimlarni strukturalashtirish va grafik ta'minot yangi chet tili terminologiyasini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Amaliy jihatdan qaralganda, iqtisodiy terminologiyani o'rgatishda turli metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, talabalar bilan keys-stadi tahlillari o'tkazish, real iqtisodiy vaziyatlarga oid rolli o'yinlarni tashkil etish yoki ingliz tilidagi maqola va podkastlardan foydalanish ularga nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Shuningdek, elektron lug'atlar, interaktiv viktorinalar va portfolioga asoslangan topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z leksik bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishlari mumkin. Bunday

yondashuvlar talabalarda nafaqat so'z boyligini kengaytiradi, balki ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga ham tayyorlaydi.

Interfaol o'qitish bu kontekstda muloqot, muammolarni hal qilish va hayotiy misollarni integratsiyalashga alohida e'tibor qaratadi. An'anaviy ma'ruzalar o'rniga o'qituvchilar talabalar nafaqat ta'riflarni o'rganishlari, balki tegishli vaziyatlarda atamalarni qo'llashni mashq qilishlari uchun keys-stadi, rolli o'yinlar, munozaralar, raqamli vositalar va hamkorlik loyihalari kabi usullardan foydalanadilar. Ushbu yondashuv Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning xalqaro tajribasi bilan qo'llab-quvvatlanadi, bu yerda iqtisodiy ta'lim ko'pincha nazariyani amaliy faoliyat bilan birlashtiradi. Bunda asosiy g'oya shundan iboratki, talabalar nafaqat atamalarni eslab qolishlari, balki ularni faol ishtirok etish orqali hayotda qo'llashni ham o'rganishlari kerak. Xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, interfaol o'qitish iqtisodiy til leksikasini yanada samarali tushunish va uzoq vaqt eslab qolishga olib keladi.

Eng keng tarqalgan usullardan biri bu Garvard biznes maktabida asos solingan va hozirda Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa bo'ylab biznes va iqtisodiyot fakultetlarida keng tarqalgan keys-stadi yondashuvidir. Bu usulda talabalar real yoki modellashtirilgan iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qiladilar, inflyatsiya, YAIM yoki fiskal siyosat kabi tegishli atamalarni aniqlaydilar va muhokama jarayonida ushbu atamalarni qo'llaydilar. Bu texnik leksika tabiiy ravishda mustahkamlanadigan haqiqiy vaziyatlarni yaratadi.

Simulyatsiya va rolli o'yinlar xalqaro amaliyotda, ayniqsa, Buyuk Britaniya va Germaniyada keng tarqalgan. Pedagoglar ko'pincha ta'lim oluvchilar xaridor, sotuvchi yoki siyosatchi sifatida harakat qiladigan bozor modellarini tashkil etadilar. Talabalar mashqlarni bajarish jarayonida taklif, talab, moslashuvchanlik yoki bozor muvozanati kabi atamalarni qo'llashlari kerak, bu esa mavhum tushunchalarni amaliyotga o'tkazadi va iqtisodiy lug'atdan faol foydalanishni ta'minlaydi.

Skandivaniya mamlakatlarida iqtisodiy ta'limda loyiha asosida o'qitish yuqori baholanadi. Talabalar guruhlarda real loyihalar ustida ishlaydilar, masalan, mahalliy bozor ma'lumotlari asosida inflyatsiyani hisoblash yoki ma'lum bir mamlakatda YAIM o'sishini tahlil qilish. Ilmiy izlanishlar olib borish va natijalarni taqdim etish davomida ular ilmiy va kasbiy atamalarni faol qo'llaydilar. Shuningdek, Kanada va Avstraliyada hamkorlikda o'qitishning «Jigsaw» texnologiyasi qo'llaniladi. Talabalarning har bir guruhi pul-kredit siyosati vositalari yoki ishsizlik turlari kabi iqtisodiy atamalarning bitta klasterini o'rganib, keyin uni o'z tengdoshlariga o'rgatadi. Ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ikki tomonlama roli so'z boyligini saqlashni sezilarli darajada kuchaytiradi.

Bahs-munozaralar va Suqrot seminarlari Niderlandiya va AQSHda amal qilayotgan yana bir samarali usuldir. Talabalarga hukumat eng kam ish haqini oshirishi kerakmi yoki yo'qmi kabi savollar bo'yicha pozitsiyalarni muhokama qilish taklif etiladi va ular o'z fikrlarini isbotlash uchun aniq iqtisodiy atamalardan foydalanib, asoslashlari kerak. Bunday yondashuv haqiqiy munozarada texnik lug'atni mustahkamlash bilan birga argumentativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Xuddi shunday, Finlyandiya va Yaponiyada konseptual xaritalash va infografika kabi vizual o'rganish usullari mashhur. Inflyatsiya, iste'mol narxlari indeksi, xarid qobiliyati, real ish haqi kabi atamalarni diagrammalar va ko'rgazmali vositalar orqali

bir-biriga bog'lash orqali o'quvchilar tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushinishlari va iqtisodiy sistemalarning kengroq tuzilishini kuzatishlari mumkin.

Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy atamashunoslikni interfaol usulda o'rgatish, uni yodlatishdan ko'ra ancha samaralidir. Keys-stadilar, simulyatsiyalar, loyihalarga asoslangan ta'lim, hamkorlikda o'qitish, raqamli geymifikatsiya, munozaralar yoki vizual xaritalash orqali bo'lsin, bu yondashuvlar o'quvchilarga nafaqat texnik lug'atni o'zlashtirishga, balki uni haqiqiy, muammoli sharoitlarda qo'llashga ham yordam beradi. Bu ularni iqtisodiyot sohasida real muloqotga tayyorlaydi va ularning ham lingvistik, ham tahliliy ko'nikmalarini oshiradi.

Umuman olganda, xalqaro amaliyot iqtisodiy terminologiyani o'qitishda interfaol metodlar yuqori samara berishini ko'rsatmoqda. Ular o'quv jarayonini qiziqarli va dinamik tajribaga aylantiradi, o'quvchilarga tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi hamda ularni iqtisodiy tildan ham akademik, ham kasbiy sharoitlarda aniq va ishonchli foydalanishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy terminlarni o'rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bunday yondashuv talabalarning faolligini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv usullar orqali iqtisodiy terminlarning mazmuni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy misollar asosida ham yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasida samarali muloqot shakllanib, o'quv jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*.
2. Krashen, S. D. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Oxford: Pergamon Press.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Ur, P. (2012). *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Tilbury, D. (2011). *Education for Sustainable Development: An Expert Review of Processes and Learning*. Paris: UNESCO.
6. World Bank (2018). *Uzbekistan Education Sector Analysis: Building Foundations for the Future*. Washington, DC: World Bank.
7. Yuldasheva, D., & Mirzaeva, N. (2021). Innovative Approaches to Teaching Economics in Uzbekistan: Challenges and Perspectives. *Journal of Central Asian Studies*, 28(3), 115–127.

## O’QITUVCHI NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

**Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna**

Farg’ona davlat universiteti

Filologiya fanlari doktori, professor. (DSC)

**Xudoyberdiyeva Nodirabegim Alisher qizi**

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

( boshlang’ich ta’lim) 2-kurs magistranti

### **Annotatsiya**

*Ushbu tadqiqot o’qituvchi nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasini yoritadi. Nutq — o’qituvchining quroli, uning darsdagi nafis sehidir. Nutqi ravon, aniq, mantiqli bo’lgan pedagog o’quvchilarning fikrlash ufqini ochadi, darsda ishonch va motivatsiya uyg’otadi. Ishda nutq madaniyati, kommunikativ strategiyalar, verbal va neverbal ifoda vositalari, pedagogik nutq texnologiyalari kabi jihatlar tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, nutqiy kompetensiyasi rivojlangan o’qituvchi dars jarayonida samaraliroq muloqot o’rnatadi, o’quvchi faolligini kuchaytiradi va ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi.*

*Kalit so’zlar: o’qituvchi nutqi, nutqiy kompetensiya, pedagogik kommunikatsiya, nutq madaniyati, ta’lim sifati.*

### **Абстрактный**

*В исследовании рассматривается развитие речевой компетенции педагога. Речь — главный инструмент учителя, его влияние и стиль общения. Развитая речевая компетентность обеспечивает ясное объяснение материала, формирует доверие и активизирует учебную деятельность учащихся. В работе анализируются культура речи, коммуникативные стратегии, вербальные и невербальные средства, а также технологии педагогической речи. Выводы показывают, что педагог с высоким уровнем речевой компетентности обеспечивает более продуктивное взаимодействие и положительно влияет на качество обучения.*

*Ключевые слова: педагогическая речь, речевая компетентность, коммуникация, культура речи, качество образования.*

### **Abstract**

*This study explores the development of teachers’ speech competence. Speech is not just a tool — it is a teacher’s influence, confidence, and bridge to understanding. A teacher with strong speech competence can deliver ideas clearly, motivate students, and create an engaging learning environment. The research focuses on speech culture, communicative strategies, verbal and non-verbal expression, and professional speech techniques. Findings indicate that developed speech competence significantly improves classroom interaction and enhances the overall quality of education.*

*Key words: teacher speech, speech competence, pedagogical communication, speech culture,*

*educational quality.*

**Kirish.** O’qituvchining nutqi — bu darsning yuragi. U sinfga kirishi bilan so’zlar orqali muhit yaratadi: kimdir bilimni buyruq bilan emas, muloyim ovoz bilan uyg’otadi; kimdir murakkab mavzuni ham shunday tarona bilan tushuntiradiki, o’quvchi “Matematika nega shunchalar go’zal?” deb hayron qoladi. Shuning uchun nutqiy kompetensiya — bu oddiy texnika emas, pedagogning kasbiy obro’si, ta’siri va o’quvchi ongiga olib boradigan ko’rinmas ko’prikdir.

Bugungi ta’lim tizimi o’zgarib bormoqda: darslar interaktiv, o’quvchilar esa tezkor, savollar keskin, diqqati esa qisqa masofali yuguruvchi. O’qituvchi esa nafaqat bilim beruvchi, balki motivator, psixolog, muloqot san’atkori. Bunday vaziyatda nutqi ravon bo’lmagan pedagog — kamonchisi yo’q yoyga o’xshaydi: kuch bor, natija yo’q.

Nutqiy kompetensiya quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- aniq, mantiqli, ravon fikrni ifodalash;
- ovozni boshqarish, pauza va urg’ulardan ongli foydalanish;
- neverbal muloqot — nigoh, tana tili, masofa;
- o’quvchining e’tiborini ushlab turish san’ati.

Tadqiqotning dolzarbligi ham shunda: zamonaviy ta’lim sifatiga ta’sir etadigan asosiy omillardan biri — o’qituvchining nutqi. Texnologiya kuchaydi, materiallar raqamlashtirildi, lekin darsning muvaffaqiyati baribir insonning ikki narsasiga tayanadi: so’z va ta’sir.

Biz nafis so’zning kuchini qayta tiklashimiz kerak. Chunki ravon nutq — bu o’quvchining ongini uyg’otadigan tong shabadasi. Gapni chiroyli qilish emas, mazmunni jonlantirish, bilimga yo’l ochish — mana maqsad.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirgan o’qituvchi:

- darsda tartibni buyruq bilan emas, muloqot bilan o’rnatadi,
- murakkab g’oyani ham oddiy, lo’nda tushuntiradi,
- eshitilganday emas, tinglanganday bo’ladi.

Kelajak ta’limi — bu robotlar emas, insoniy nutqning kuchi.

So’z — o’qituvchining eng zamonaviy texnologiyasidir.

**Adabiyotlar tahlili:** Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, o’qituvchining nutqiy kompetensiyasi — bu faqat “gapira olish” emas, balki fikrning ilmi, ovozning ritmi va muloqotning san’atidir. A.A. Leontev nutqni fikrning tashqi qobig’i deb emas, balki fikrning o’zagi, uning tirik energiyasi deb izohlaydi. B.G. Ananyev va boshqa psixologlar pedagog nutqini shaxslararo ta’sirning eng kuchli vositasi sifatida baholaydi: so’z orqali o’qituvchi o’quvchi ongiga yo’l ochadi, u bilan o’zaro ishonch ko’prigi quradi. Tadqiqotlar nutqning ravonligi, mantiqiy ketma-ketligi, ohang va urg’u kabi elementlar o’quvchining tushunish darajasi va o’quv motivatsiyasiga bevosita ta’sir qilishini tasdiqlaydi. Albert Mehrabian tadqiqotlarida kommunikatsiyaga ta’sir etuvchi omillar nisbatlari keltiriladi: 7% — so’zning mazmuni, 38% — ovoz va intonatsiya, 55% — tana tili. Demak, o’qituvchi nutqi og’izdan chiqqan tovushlargina emas, balki nigoh, tana holati, pauza va ovozning tebranishidir — hammasi birgalikda “muloqot” nomli sehrni yaratadi.

J. Hattie tomonidan amalga oshirilgan metaanaliz natijalari ham bejiz emas: o’qituvchi

nutqining aniqligi va emotsionalligi darsning sifat ko’rsatkichiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Ustoz fikrni murakkablashtirmasdan, lo’nda va sodda ifodalaganida o’quvchilarning mavzuni o’zlashtirish darajasi oshadi. Kolesnikova, Hutchinson singari kommunikatsiya bo’yicha tadqiqotchilar o’qituvchi nutqida savol berish texnikasi muhimligini ta’kidlab, yaxshi savol — bu o’quvchini o’ylashga undaydigan energiya manbai ekanini qayd etadilar.

Mahalliy adabiyotlarda ham nutq madaniyati o’qituvchi kasbiy mahoratining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi (Qosimov, Mavlonova, Yo’ldoshev). Ularning ta’kidlashicha, pedagogning nutqi nafaqat bilim beradi, balki tarbiyalaydi, qadriyatlarni singdiradi, sinfda ruhiy muhitni shakllantiradi. Yaxshi nutq buyruq bermaydi — u ishonch uyg’otadi. Dars davomida o’qituvchi ovozi boshqarishni bilsa, muloqotni monologdan dialogga aylantirsa, o’quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.

Ilmiy manbalar bir nuqtada birlashadi: nutqi rivojlangan o’qituvchi — o’z fanining tarzin emas, ruhini ham yetkazadigan ijodkor. So’z — uning quroli, ovoz — uning nafas ritmi, til — uning yuragidagi nurdir. Nutqiy kompetensiya yuksak bo’lgan pedagog o’quvchilar bilan nafaqat gaplashadi — ularni ilhomlantiradi.

**Tahliliy metod:** bu matnning ichiga kiradigan, har bir jumlaning orqasidan “nima uchun?” deb so’raydigan ichki kuzatuvchidir. Ushbu tadqiqotda mazkur metod o’qituvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga oid ilmiy manbalar, nazariy konsepsiyalar va amaliy tajribalarni solishtirish, ularni tahlil qilish va umumlashtirish uchun qo’llandi. Manbalar shunchaki o’qilmadi — “ochildi”: har bir muallif fikrining tagidagi maqsad, qo’yilgan savol, yechimga eltuvchi yo’l izlab topildi. Tahlil jarayonida o’qituvchi nutqining mazmuniy, lingvistik, emotsional va kommunikativ komponentlari ajratildi va ular ta’lim samaradorligiga ta’siri bo’yicha baholandi. Ushbu metod o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi muloqotni tirik jarayon sifatida ko’rib, nazariy mulohazalarni real pedagogik vaziyatlar bilan solishtirishga imkon berdi. Tahlil — jarayonning o’zi emas, bilishga eltuvchi yo’l. U yordamida biz faktlardan ma’no, fikrlardan esa haqiqat yasadik. Aslida, tahlil — bu g’oyalar orasidagi nozik iplarni ko’ra olish san’ati: ayrim olimlar so’zning lingvistik tomonini kuchaytirgan bo’lsa, boshqalari inson ruhiga ta’sirni markazga qo’ygan; tahliliy metod esa ularning barchasini bir butun manzara qilib birlashtirdi.

**Metodologik yondashuvlar:** Ushbu tadqiqotning metodologik yondashuvlari o’qituvchi nutqiy kompetensiyasini bir yoqlama emas, balki ko’p qirrali, tirik organizm sifatida ko’rishga imkon berdi. Nutq — bu nafaqat tilshunoslik masalasi, balki psixologiya, pedagogika va kommunikatsiya fanlarining kesishgan nuqtasi. Shu bois metodologik asoslar ham bir nechta yondashuvlar uyg’unligida tanlandi.

Birinchi, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv o’qituvchining nutqi uning shaxsiyati bilan chambarchas bog’liqligini e’tirof etadi. Nutq — odamning ovozi emas, uning ichki dunyosining aks-sadosidir. O’qituvchi o’zini anglamasa, boshqaga ta’sir eta olmaydi. Bu yondashuv pedagoga o’z nutqi orqali o’quvchi ruhiyatiga yengil kirish imkonini beradi.

Ikkinchi, kommunikativ yondashuv dars jarayonini “men gapiraman — sen tinglaysan” modelidan chiqaradi. Bu yondashuvga ko’ra, o’qituvchi nutqining maqsadi axborot uzatish emas, balki muloqot yaratish, fikr almashish, dialog qurishdir. Bu yerda savol berish, tinglash, ohangni boshqarish — usul emas, ustozning eng nozik san’atidir.

Uchinchidan, faoliyatga yo’naltirilgan yondashuv nutqni jarayon sifatida ko’rib, o’qituvchini darsning faqat ma’ruzachisi emas, balki boshqaruvchisi va rejissyori sifatida talqin etadi. Nutq pedagogik vaziyatlarga mos ravishda shakllanadi: kerak bo’lsa — qattiq, kerak bo’lsa — yumshoq, ba’zan esa sokin pauza ham ko’proq ta’sir qiladi.

To’rtinchidan, refleksiv yondashuv o’qituvchini o’z nutqini tahlil qilishga o’rgatadi: u qanday gapirdi, qanday tushunildi, ovoz qanday eshitildi? Refleksiya — bu pedagogning ichki laboratoriyasi. So’zlar sinovdan o’tadi, natijalar qayd etiladi, xatolar qayta tug’iladi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u o’qituvchining nutqiy kompetensiyasini nazariy tushunchadan hayotiy ko’nikmaga aylantiradi. So’z — qog’ozda emas, darsda jonlanadi. Natijada ishlangan metodik tavsiyalar pedagogga nutq ustida ongli ishlash, ovozini boshqarish, ohang bilan fikrga rang berish, tana tili orqali muloqotni boyitish imkonini yaratadi. Tadqiqot asosida ishlab chiqilgan amaliy yo’l-xaritalar va mashqlar o’qituvchilarga quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi: dars jarayonida ravon, izchil va emotsional nutq orqali o’quvchilar diqqatini ushlab turish; monolog emas, dialogga asoslangan muloqot yaratish; murakkab mavzuni oddiy, tushunarli va ma’noli tarzda yetkazish. Shu bilan birga, refleksiv kuzatuv va nutqni tahlil qilish bo’yicha taklif etilgan usullar o’qituvchiga o’z ustida muntazam ishlash va nutqiy madaniyatni oshirish imkonini beradi.

Ushbu ishning amaliy ahamiyati yana shunda ko’rinadi: pedagog nutqini shakllantirishga qaratilgan mashqlar, treninglar, kommunikativ vaziyatlar namunasi ta’lim muassasalarida, pedagogik jarayonlarda, o’qituvchilar malakasini oshirish kurslarida qo’llanishi mumkin. O’qituvchining nutqi o’zgarsa — dars sifati o’zgaradi; dars sifati o’zgarsa — o’quvchining fikrlashi o’zgaradi; fikrlash o’zgarsa — kelajak o’zgaradi. Nutq — kichik harakat, lekin ulkan ta’sir kuchiga ega. Shu sababli bu tadqiqotning natijalari o’quvchilar faolligi, ularning motivatsiyasi va ta’lim samaradorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Leontev, A.A. Psixologiya i pedagogika rechi. — Moskva: Smysl, 2019.
2. Ananyev, B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. — Leningrad: Nauka, 2020.
3. Hartley, J. Communication, Classroom Interaction and Learning. — London: Routledge, 2018.
4. Hattie, J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses. — New York: Routledge, 2009.
5. Mehrabian, A. Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. — Belmont: Wadsworth, 1981.
6. Kolesnikova, N. & Guzeyev, V. Kommunikativnaya kompetentnost pedagoga. — Moskva: Akademiya, 2022.
7. Мавлонова, P., & Xudoyberdiyev, A. Pedagogik mahorat va nutq madaniyati. — Toshkent: O’zbekiston Milliy nashriyoti, 2021.
8. Qosimov, M. Nutq madaniyati va uslubiyat. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
9. Yo’ldoshev, J.G. Pedagogning kasbiy mahorati. — Toshkent: “O’qituvchi” nashriyoti, 2019.

10. Tishkov, V.A. Kultura pedagogicheskogo obshcheniya. — Sankt-Peterburg, 2017.
11. Scrivener, J. Classroom Management Techniques. — Cambridge: Cambridge University Press, 2017.
12. Brown, H. Douglas. Teaching by Principles – An Interactive Approach to Language Pedagogy. — New York: Pearson, 2020.
13. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. — Pearson, 2015.
14. UNESCO. Teacher Competency Framework for Teaching and Learning. — Paris: UNESCO Publishing, 2022.
15. Uzbek Research Institute of Pedagogical Sciences. Nutqiy kompetensiyani baholash mezonlari (metodik qo’llanma). — Toshkent, 2023.

## BOSHLANG’ICH SINFLAR DARSLIKLARI ORQALI TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA TIL KOMPETENTLIGINING O’RNI.

**Zokirova Sohiba Muhtoraliyevna**

Farg’ona davlat universiteti  
Filologiya fanlari doktori, professor. (DSC)

**Xomidova Roziyaxon Ilxomjon qizi**

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
( boshlang’ich ta’lim) 2-kurs magistranti

### **Annotatsiya**

*Boshlang’ich sinf darsliklari nafaqat bilim manbai, balki shaxsning axloqiy, madaniy va ijtimoiy qarashlarini shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy vositadir. Til kompetentligini rivojlantirish orqali o’quvchi matnni tushunish, fikrni ifodalash, muloqot qilish, bahs yuritish va o’z nuqtayi nazarini himoya qilish kabi ko’nikmalarni egallaydi. Darsliklardagi mavzular, matnlar, dialoglar va topshiriqlar o’quvchilar ongida milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, hamkorlik, hurmat, mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Til kompetentligining rivojlanishi o’quvchining dunyoqarashini kengaytirib, uni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Aslida, til — bu faqat so’zlar yig’indisi emas; u tarbiya, fikr va shaxsning o’sish yo’lida asosiy ko’prikdir.*

*Kalit so’zlar: til kompetentligi, boshlang’ich ta’lim, tarbiya, muloqot, darslik, ma’naviy qadriyatlar, nutqiy rivojlanish.*

### **Абстрактный**

*Учебники начальных классов являются не только источником знаний, но и мощным инструментом воспитательного воздействия. Развитие языковой компетентности формирует у учащихся умение понимать текст, выразить мысли, взаимодействовать, аргументировать свои идеи и уважать точку зрения другого. Через тексты, диалоги и задания учебники передают нравственные и культурные ценности, развивают*

ответственность, уважение, сотрудничество и коммуникативность. Языковая компетентность становится основой морального развития ребёнка, формируя его мировоззрение и готовность к социальной жизни. Язык в данном контексте выступает как средство не только общения, но и воспитания личности.

Ключевые слова: языковая компетентность, начальное образование, воспитание, коммуникация, учебник, нравственные ценности, развитие речи.

### **Abstract**

Primary school textbooks serve not only as instructional resources but also as powerful tools for shaping moral, cultural, and social values. Developing language competency enables learners to understand texts, express their ideas, engage in communication, think critically, and defend their viewpoints. Through stories, dialogues, and learning activities, textbooks transmit ethical values, cooperation skills, responsibility, and respect for others. Language competence expands the child’s worldview and prepares them for social participation. In essence, language is not merely a system of words; it is a bridge that connects knowledge with character formation.

Key words: language competency, primary education, values education, communication skills, textbook, character development, language acquisition.

**Kirish.** Boshlang’ich ta’lim — bu o’quvchining nafaqat bilim olishi, balki shaxs sifatida shakllanishida birinchi poydevordir. Darsliklar esa shu jarayonning ko’rinmas, ammo qudratli tarbiyachisidir. Har bir matn, har bir dialog, har bir savol o’quvchi ongida fikr uyg’otadi, savol tug’diradi va javob izlashga undaydi. Til kompetentligini rivojlantirish — bu bolaga faqat gapirishni o’rgatish emas; balki dunyoni tushunish, his qilish va o’z fikrini erkin ifodalashga imkon berishdir. Til orqali bola nafaqat ma’lumotni qabul qiladi, balki qadriyatlarini ham anglaydi. Axir, nutqi boy bola fikri boy bo’ladi; fikri boy bola esa dunyoni o’zgar tirishga qodir bo’ladi.

Boshlang’ich sinf darsliklari bola qalbiga tarbiyani “ma’ruzalar orqali” emas, balki so’zlar, obrazlar va hikoyalar orqali singdiradi. Bir hikoyada mehnatsevarlik, boshqa matnda halollik, bir mashqda hamkorlik, bir dialogda esa hurmat va muloqot madaniyati aks etadi. Bu jarayonda til kompetentligining o’rni alohida: o’quvchi o’qiydi — tushunadi, tinglaydi — anglaydi, gapiradi — o’z fikrini shakllantiradi. Til orqali shakllangan har bir g’oya, har bir tushuncha shaxs tarbiyasining bir bo’lagi bo’lib qo’shiladi.

Zamonaviy ta’limga ko’ra, bilim — faktlar jamlanmasi emas, balki fikrlash madaniyatidir. Til kompetentligiga ega o’quvchi matnni o’qibgina qolmaydi, balki undagi ma’naviy qadriyatni sezadi, xulosa chiqaradi va uni hayotga tatbiq etadi. Shuning uchun boshlang’ich darsliklarda beriladigan har bir so’z — tarbiya vositasi, har bir matn — shaxsni shakllantiruvchi kuchdir. Til — bu tarbiyaning yuragi. U orqali bola bilishga emas, bo’lishga o’rganadi: mas’uliyatli bo’lishga, hurmat qilishga, tinglashga, tushunishga.

Yaxshi tan olingan haqiqat bor: bolaning nutqi qanday bo’lsa, kelajagi ham shunday bo’ladi. Til kompetentligini rivojlantirish orqali biz nafaqat darsni, balki shaxsni tarbiyalaymiz. Til tarbiya qiladi, tarbiya esa insonni.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang’ich ta’lim jarayonida til kompetentligini rivojlantirish orqali tarbiya berish masalasi so’nggi yillarda pedagogika, lingvistika va psixologiya tadqiqotlarida

alohida e’tibor qaratilayotgan yo’nalish hisoblanadi. Jahon tajribasida (Dewey, Vygotsky, Bruner, Cummins) til o’rganish jarayoni shaxsning ijtimoiylashuvi, muloqot madaniyati va ma’naviy shakllanishi bilan chambarchas bog’langanligi ta’kidlanadi. Vygotskiy tilni inson tafakkurining tashqi shakli deb ataydi: bola avval so’z orqali dunyoni anglaydi, keyin fikrga aylantiradi. Demak, darsliklarda berilgan til materiali — bu faqat matn emas, balki tarbiyaviy ma’noga ega bo’lgan fikrlar tizimidir.

Til kompetentligining tarbiyaviy ahamiyatini yoritgan mahalliy olimlar (Qodirova, Mavlonova, Yo’ldoshev, G’ulomov va boshqalar) ham boshlang’ich sinf o’quvchisida mustaqil fikrlash, o’z fikrini ravon ifodalash, axloqiy qadriyatlarga e’tibor bilan qarash kabi ko’nikmalarni shakllantirishda darsliklarning rolini ta’kidlashadi. Ularning fikriga ko’ra, o’quvchi matnni o’qish orqali “bilim oladi”, lekin matnni anglash orqali “tarbiya topadi”. Shuning uchun darsliklarda ona tilining nutqiy ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar aksariyat hollarda kommunikativ vaziyatlar orqali berilmoqda: dialoglar qurish, muloqot qilish, fikrni asoslash, bahs orqali xulosa chiqarish.

Umumiy Yevropa Til Kompetensiyasi (CEFR) tavsiyalarida ham til o’qitish jarayoni faqat grammatikani o’rgatish emas, balki o’quvchini ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish vositasi ekanligi ta’kidlanadi. CEFR bo’yicha kompetent o’quvchi — bu muloqot qila oladigan, tinglay oladigan, fikrini aniq ifodalay oladigan, hurmat va tolerantlik tamoyillariga amal qiladigan shaxsdir. Shu ma’noda, boshlang’ich sinf darsliklarida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, oilaviy hurmat, mas’uliyat, hamkorlik kabi sifatlar matn mazmuni orqali singdirilmoqda.

Psixolingvistika tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, bola so’zlarni yodlamaydi — his qiladi. Mazmunning tarbiyaviy kuchi matnning emotsional ta’siri, obrazlar va voqealar orqali shakllanadi. Shu sababli darsliklarda hikoyalar, ertaklar, dialoglar, real hayotga yaqin vaziyatlar ko’p uchraydi. Bruner fikricha, bola matn orqali “o’zini topadi”, ya’ni o’ziga o’xshash qahramonlar bilan identifikatsiya qilgan sari tarbiya jarayoni tabiiy kechadi.

Xorijiy tajriba ham bu fikrni qo’llab-quvvatlaydi: Finlyandiya, Yaponiya va Singapur boshlang’ich ta’lim tizimida darsliklar tarbiyaviy material bilan boyitilib, til ko’nikmalari “insoniylik”, “muloqot madaniyati” va “ijtimoiy faollik” bilan bog’lanadi. Ularning darsliklarida nutqiy topshiriqlar hayotiy vaziyatlarda hal qilinishi kerak bo’lgan muammoga asoslanadi. Bu, o’z navbatida, til kompetentligini rivojlantirish orqali shaxs tarbiyasini kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, boshlang’ich sinflar darsliklarida til kompetentligini rivojlantirish — bu faqat lingvistik maqsad emas, balki tarbiyaviy-ijtimoiy jarayondir. Til orqali bola so’zni o’rganadi, so’z orqali fikrni, fikr orqali esa insoniylikni. Til tarbiya qiladi; tarbiya esa shaxsni shakllantiradi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda boshlang’ich sinf darsliklari orqali tarbiyani shakllantirishda til kompetentligining o’rni o’rganildi. Metodologik yondashuvning markazida shunday tamoyil turadi: til — bu nafaqat muloqot vositasi, balki tarbiyaning eng kuchli vositasi, darslik esa uning tashuvchisidir. Tadqiqot konstruktivizm nazariyasiga tayandi, bunda o’quvchi bilimni tayyor qabul qilmaydi, balki uni muloqot, o’qish, fikrlash va o’z tajribasi orqali quradi. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” g’oyasiga ko’ra, o’quvchi

til vositasida o’z fikrini ifodalab borar ekan, uning tafakkuri va tarbiyaviy pozitsiyasi ham shakllanadi. Shu bois metodika o’quvchini faol subyekt sifatida ko’radi, ya’ni matnni o’qish emas, matn bilan yashash — asosiy jarayon.

Tadqiqotda kontent-tahlil, kuzatish va pedagogik eksperiment aralash qo’llanildi. Darsliklar mazmunida berilgan hikoyalar, topshiriqlar, dialoglar va axloqiy vaziyatli matnlar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilindi. O’quvchilar bilan olib borilgan mashg’ulotlarda nutqni rivojlantiruvchi topshiriqlar qo’llanildi: fikrni asoslash, bahsga kirishish, qahramonning xatti-harakatiga baho berish, matndan xulosa chiqarish. Har bir topshiriqning maqsadi grammatika o’rgatish emas, shaxsning nutq madaniyati va axloqiy qadriyatlarini shakllantirish bo’ldi. Baholash jarayonida o’quvchilarning nutqiy faolligi, fikrning mantiqi, axloqiy-hissiy javoblari va muloqot uslubi kuzatildi. Shuningdek, pre-test va post-test orqali til kompetentligidagi o’zgarishlar aniqlanib, o’quv materialining tarbiyaviy ta’siri baholandi.

Ushbu metodologiya ta’lim jarayoniga bitta oddiy, ammo kuchli savol bilan kiradi: “O’quvchi matndan faqat so’z o’rganyaptimi yoki o’zini ham toparmi?” Chunki haqiqiy ta’lim, rusumlar yoki qoidalar yig’indisi emas, balki bolaning dunyoqarashi, nutqi va xarakterini o’zgartira oladigan jarayondir. Til kompetentligini rivojlantirishga yo’naltirilgan bunday metod o’quvchini passiv tinglovchidan faol muloqotchi, so’z ishlatuvchidan — fikr egasiga aylantiradi.

**Xulosa.** Boshlang’ich sinf darsliklari orqali tarbiyani shakllantirishda til kompetentligining o’rni markaziy ahamiyatga ega. Til o’quvchining dunyoni anglash, o’z fikrini ifodalash, munosabat bildirish va qadriyatlarni qabul qilish jarayonining asosiy vositasidir. Darsliklarda berilgan matnlar, dialoglar, hikoyalar va topshiriqlar orqali bola nafaqat lug’at boyligini oshiradi, balki nutq madaniyati, muloqot etikasi, hurmat, mas’uliyat, mehr-oqibat, halollik kabi axloqiy sifatlarni amaliy tarzda o’zlashtiradi. Til kompetentligining shakllanishi orqali o’quvchida mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, baholash va xulosa chiqarish ko’nikmalari rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, zamonaviy pedagogik qarashlar tilni o’rgatishni shaxs tarbiyasidan ajratmaydi. Chet el tajribasi (CEFR, Finn modeli) ham darslikdagi til materialini orqali qadriyatlarni singdirishni samarali yondashuv sifatida tan oladi. O’quvchi tilni o’zlashtirar ekan, u axloqiy ong va ijtimoiy mas’uliyat kabi shaxsiy fazilatlarini ham shakllantiradi. Metodologiyada qo’llanilgan kontent-tahlil, kuzatish, pre- va post-testlar til kompetentligini rivojlantirish orqali tarbiyaviy yutuqlarni aniq ko’rsatdi. O’quvchilarda nutq faolligi, fikrni izohlash, dalillash va muloqot madaniyatida ijobiy o’sish kuzatildi.

Natijada, til kompetentligini rivojlantirishga tayangan darsliklar o’quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki fikr egasi, muloqotchi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllantiradi. Til — bu tarbiya yuragi. So’z orqali shakllangan fikr insonning xarakteriga aylanadi. Shu bois boshlang’ich ta’lim jarayonida tilni o’rgatish — shaxsni tarbiyalashdir, darslik esa shu jarayonning poydevorini qo’yuvchi kuchli vositadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F. Boshlang’ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2021.
2. Mavlonova R., To’xtasinov M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan,

- 2020.
3. Yo’ldoshev J. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
  4. G’ulomov A. Nutq madaniyati va til kompetensiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2018.
  5. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. New York: Macmillan.
  6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
  7. Bruner, J. (1983). Child’s Talk: Learning to Use Language. New York: W. W. Norton.
  8. Cummins, J. (2000). Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters.
  9. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Council of Europe, 2020.
  10. OECD. Learning Compass 2030: Transforming Education for Future Skills. OECD Publishing, 2021.
  11. UNESCO. Education for Sustainable Development: Learning Objectives. Paris: UNESCO, 2020.
  12. Tomlinson, C. A. (2014). The Differentiated Classroom. ASCD.
  13. Singapur Ta’lim Vazirligi. Primary English Language Syllabus. Ministry of Education Singapore, 2021.
  14. Finnish National Board of Education. Core Curriculum for Basic Education. Helsinki, 2016.
  15. Sharofutdinova R. Sh. Ko’rishida muammolari bo’lgan boshlang’ich sinf o’quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasi. DSc dissertatsiyasi. – Farg’ona davlat universiteti, 2025.

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARI MALAKASINING BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

**Habibullayeva Rayhon Vahob qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti

Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi yo’nalishi 1-bosqich magistranti

### **Annotatsiya**

*Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining malaka darajasi, ularning kasbiy kompetensiyasi hamda bolalar rivojlanishiga ko’rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Pedagog malakasining oshirilishi bolalarning intellektual, ijtimoiy, hissiy va nutqiy rivojlanishida muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim talablariga mos pedagogik yondashuvlar va malaka oshirish jarayonlarining samaradorligi yoritilgan.*

*Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, pedagog malakasi, bolalar rivojlanishi, kasbiy kompetensiya,*

innovatsion metodlar, ta’lim sifati.

### **Абстрактный**

*В данной статье анализируется уровень квалификации педагогов дошкольных образовательных учреждений, их профессиональная компетентность и влияние на развитие детей. Повышение квалификации педагогов признается важным фактором в интеллектуальном, социальном, эмоциональном и речевом развитии детей. Также освещается эффективность педагогических подходов и программ повышения квалификации, соответствующих современным требованиям образования.*

*Ключевые слова: дошкольное образование, квалификация педагога, развитие детей, профессиональная компетентность, инновационные методы, качество образования.*

### **Abstract**

*This article analyzes the qualification level of preschool education teachers, their professional competence, and their impact on child development. Enhancing teachers’ qualifications is recognized as an important factor in the intellectual, social, emotional, and speech development of children. The effectiveness of pedagogical approaches and professional development programs aligned with modern educational requirements is also highlighted.*

*Key words: preschool education, teacher qualification, child development, professional competence, innovative methods, education quality.*

**Kirish.** Bolalarning to’liq va uyg’un rivojlanishi ularning hayotidagi ilk va eng muhim bosqichlardan biri bo’lib, ayniqsa maktabgacha ta’lim davrida shakllanadi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi pedagoglarning malakasi va kasbiy kompetensiyasi bolalarning intellektual, ijtimoiy, hissiy va nutqiy rivojlanishida bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi va maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyalari pedagoglar malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratadi. Malakali pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki bola shaxsini shakllantiruvchi, uning qobiliyatlarini uyg’un rivojlantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. [1] Shu sababli, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish jarayonlari bolalar rivojlanishini samarali tashkil etish, individual yondashuvni qo’llash va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada pedagoglarning malaka darajasi, kasbiy kompetensiyasi va bolalarga ko’rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi hamda malaka oshirishning samaradorligi yoritiladi.

Pedagog malakasi — bu nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko’nikmalar, pedagogik texnologiyalardan foydalanish va kasbiy kompetensiyalarning to’liq majmui hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi har bir pedagog bolalar rivojlanishida bevosita rol o’ynaydi. Malakali pedagog bola shaxsining intellektual, ijtimoiy-emotsional, nutqiy va jismoniy rivojlanishini uyg’unlashtirishga qodirdir.[2]

Adabiyotlarda pedagog malakasi va bolalar rivojlanishi o’rtasidagi bog’liqlik keng yoritilgan. Xudoyberdiyeva pedagogik faoliyatning samaradorligi bevosita pedagogning kasbiy tayyorgarligiga bog’liqligini ta’kidlaydi va malakali pedagog bolalar o’rtasida ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi, deb yozadi.

Raximova esa pedagog malakasini oshirish jarayonining samaradorligi o’quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda darslarni shaxsiylashtirishga yordam berishini ko’rsatadi.[3]

Vygotsky va Bronfenbrenner ning nazariy ishlari bolalar rivojlanishi va pedagogik muhit o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni ochib beradi. Ularning fikriga ko’ra, pedagog malakasi bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. UNESCO tadqiqotlari ham shuni ko’rsatadiki, malakali pedagog bolalarning emotsional, ijtimoiy va akademik yutuqlarini oshiradi.[4]

Maktabgacha ta’limda pedagog malakasini oshirish bir qancha yo’nalishlarda amalga oshiriladi. Bu o’quv kurslari, seminarlar, amaliy treninglar va innovatsion metodlar – STEAM, Montessori, Reggio Emilia kabi yondashuvlarni o’zlashtirishni o’z ichiga oladi. Yo’ldosheva va Omonova ta’kidlaganidek, pedagog malakasini muntazam oshirish bolalar rivojlanishida individual yondashuvni ta’minlaydi va pedagogning zamonaviy ta’lim talablari bilan uyg’un ish faoliyatini tashkil qiladi.[5]

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, pedagogning kasbiy malakasi bolalar rivojlanishining sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Malakali pedagog bolalarning tafakkur, ijodiy qobiliyat, emotsional barqarorlik va nutqiy rivojlanishida mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois, pedagog malakasini oshirish va uning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

**Xulosa.** Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining malakasi bolalar rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Malakali pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning intellektual, ijtimoiy-emotsional, nutqiy va jismoniy rivojlanishini uyg’unlashtiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Pedagog malakasini oshirish bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini shaxsiylashtirishga yordam beradi va ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv hamda muammolarni hal etish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo’llash pedagogning kasbiy kompetensiyasini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi va bolalarning rivojlanishida samarali natijalar beradi.

Shunday qilib, pedagog malakasini doimiy ravishda oshirish, malaka oshirish kurslari va zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish maktabgacha ta’lim sifatini yanada rivojlantirish va bolalarning barkamol rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, M. Maktabgacha ta’lim metodikasi. — O’quv qo’llanma. — Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020. — 215–230-betlar.
2. Akbarova, N. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi psixologiyasi. — Darslik. — Toshkent: “O’qituvchi”, 2018. — 89–102-betlar.
3. Bakhromova, D. “Pedagog malakasining ta’lim jarayoniga ta’siri”. — Ilmiy maqola. Ta’lim va Innovatsiya jurnali, 2021. — 44–50-betlar.
4. G’aniyeva, S. Maktabgacha pedagogika asoslari. — O’quv qo’llanma. — Toshkent: “Istiqlol nashriyot”, 2019. — 120–138-betlar.

5. Hasanova, R. “Zamonaviy pedagog kompetensiyasi va uning rivojlanish bosqichlari”. — Ilmiy maqola. Pedagogik mahorat jurnali, 2022. — 56–63-betlar.

## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA 3-6 YOSHLI INKLYUZIV GURUHLARDA BOLALAR BILAN ISHLASH METODIKASI

**Tursunova Charos Utkirovna**

Samarqand davlat pedagogika instituti

Ta’lim tarbiya nazariyasi va metodikasi yo’nalishi 1-bosqich magistranti

### **Annotatsiya**

*Ushbu ish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 3–6 yoshli inklyuziv guruhlarda bolalar bilan ishlash metodikasini tahlil qilish va takomillashtirishga bag’ishlanadi. Ishning asosiy mazmuni pedagogning inklyuziv kompetensiyasi, sinf/muhit sifati hamda differensial o’yin-va-faoliyat yondashuvlari asosida bolalarning ishtiroki, nutq-kommunikativligi, kognitiv va ijtimoiy-emotsional rivojlanish ko’rsatkichlarini oshiruvchi metodik modelni taklif etishga qaratiladi.*

*Kalit so’zlar: Inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, 3–6 yoshli bolalar, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik yondashuv, differensial ta’lim, individual yondashuv, korreksion-pedagogik ishlar, psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash, rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar.*

### **Абстрактный**

*Данная работа посвящена анализу и совершенствованию методики работы с детьми 3–6 лет в инклюзивных группах дошкольных образовательных организаций. Основное содержание исследования направлено на разработку методической модели, повышающей участие детей, их речевую и коммуникативную активность, когнитивное и социально-эмоциональное развитие на основе инклюзивной компетентности педагога, качества окружающей среды и дифференцированного игрового и деятельностного подхода.*

*Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, дети 3–6 лет, дети с особыми образовательными потребностями, педагогический подход, дифференцированное обучение, индивидуальный подход.*

### **Abstract**

*This study is devoted to analyzing and improving the methodology of working with children aged 3–6 in inclusive groups of preschool educational institutions. The main focus of the work is to propose a methodological model aimed at enhancing children’s participation, speech and communication skills, as well as cognitive and socio-emotional development through teacher inclusive competence, high-quality learning environments, and differentiated play- and activity-based approaches.*

*Key words: inclusive education, preschool education, children aged 3–6, children with special*

*educational needs, pedagogical approach, differentiated instruction, individualized approach, correctional-pedagogical work, psychological-pedagogical support, children with developmental disorders.*

**Kirish.** Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni joriy etish bugungi kunda dolzarb pedagogik va ijtimoiy vazifalardan biridir. Chunki 3–6 yosh davri bolaning nutqiy, kognitiv, shaxsiy, ijtimoiy-emotsional rivojlanishida eng sezgir va hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maxsus ehtiyojli bolalarning sog’lom tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etilishi ularning tabiiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish, jamiyatga moslashuvini osonlashtirish hamda o’z imkoniyatlarini to’liq namoyon etishiga zamin yaratadi.

Inklyuziv guruhlarda ishlash metodikasi pedagogdan yuqori darajadagi inklyuziv kompetensiyani, bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini chuqur bilishni, differensial yondashuvlarni qo’llashni hamda moslashtirilgan o’yin va ta’lim muhitini tashkil eta olishni talab qiladi. Ayniqsa 3–6 yoshdagi bolalar bilan ishlashda rivojlanishidagi kamchiliklarni erta aniqlash, korreksion-pedagogik yordamni to’g’ri yo’lga qo’yish va ijtimoiy-emotsional qo’llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

- innovatsion texnologiyalar o’quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.
- innovatsion texnologiya o’qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo’lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.
- innovatsion texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo’llashga asoslanganligi sababli, ularning qo’llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi.
- innovatsion texnologiya asosida o’tkaziladigan mashg’ulotlar bolalarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o’z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o’z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.
- o’quvchilarda tabiat va jamiyat to’g’risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish, ya’ni sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqni rivojlantiradi;
- bilishga qiziqishni va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish;
- aqliy malaka va ko’nikmalarni rivojlantirish.

Shuning uchun ham ta’lim muassasalarining o’quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o’qitish uslublari interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o’rni va ahamiyati beqiyosdir.



Tabiatga munosabat



Suvlarga munosabat



Xayvonlarga munosabat



Yovvoyi tabiatga munosabat



Atrof-muxitga munosabat



Maiyshiy chiqindilar

## 2-tarqatma materiallardan na’munalar

**Xulosa.** Innovatsion texnologiya va ularning ta’limda qo’llanilishiga oid bilimlar, tajriba bolalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlaydi. Shu bilan birga ta’lim-tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llashda allomalarimizning g’oya va qarashlaridan foydalanish o’quvchi-talabalarni o’qitish va tarbiyalashni yanada samarali bo’lishiga olib keladi.

Xulosa, yangicha fikrlash, o’z fikriga ega, bozor sharoitlarida muvaffaqiyatli ish yuritadigan, yuksak malakali, chuqur bilimli yoshlarni tarbiyalash yumushi o’qituvchilarning innovatsion faoliyatini jadallashtirish samarasi rivojlanadi. O’quvchilarni tabiatga, atrof muhitga, xayvonlarga, qushlarga bo’lgan qiziqishlari, ularni asrab avaylash zarurligi, yashab turgan joylarga turli chiqindilarni tashlab ketmaslik kabi tushunchalarni shakllanishiga olib keladi. Bu esa o’quvchilarni yoshlikdan ekologik tushunchasini shakllanishiga amaliy axamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaliqov I., Xaliqova P. Ta’lim tizimida pedogogik texnologiyalarni qo’llash // “Uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Maqolalar to’plami. –T: “Ekstremum press”. 2010.
2. Norbo’tayev X., Eshquvvatov Sh. Boshlang’ich sinflarda didaktik o’yinli ta’lim texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.// “Zamonaviy ta’lim”.2015. 6-son.-67-68-b.

3. Jumaniyozova M.T. O’qituvchilarni ta’limdagi innovatsion jarayonlariga tayyorlash muammolari. // “Uzluksiz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Maqolalar to’plami. –T: “Ekstremum press”. 2010.
4. Yuldasheva J.G., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008.
5. Mavlyanova R., Raxmonqulova N. Boshlang’ich ta’lmda pedagogika innovatsiya, integratsiya. –T.: G’G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
6. To’xtayev A., Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. –T.: “O’qituvchi”, 1994.
7. Baxramov A. Tabiatshunoslik. 4 – sinf uchun darslik.-T.: “Cho’lpon”, 2010.

## KOREYA REKLAMA MATNLARINING SINTAKTIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

**Yulduz Kudratova**

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,  
“Xorijiy tillar” kafedraasi o’qituvchisi

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada koreys tilidagi reklama matnlarining sintaktik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda reklama tilining o’ziga xosliklari, ya’ni so’z tartibi, gap tuzilishi, qo’shimchalarning ishlatilish darajasi hamda so’z birikmalarining kommunikativ vazifasi yoritilgan. Shuningdek, reklama matnlarida emotsional ta’sirni kuchaytiruvchi sintaktik vositalar – undov gaplar, qisqartirilgan gaplar, takrorlash va parallel konstruksiyalar qo’llanilishining maqsadga muvofiqligi tahlil etiladi. Grammatik jihatdan esa reklama matnlarida rasmiy nutqdan farqli ravishda so’zlashuv uslubiga xos shakllar, buyruq va da’vat ma’nosini bildiruvchi qo’shimchalar, shuningdek, modallik ifodalaydigan birliklarning keng qo’llanilishi qayd etiladi. Tadqiqot natijalari koreys tili reklama diskursining lingvistik xususiyatlarini chuqurroq anglash va tarjima jarayonlarida ularni to’g’ri talqin etishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

*Kalit so’zlar: koreys tili, reklama matni, sintaktik xususiyat, grammatik vositalar, leksik xususiyati, emotsional ta’sir, til uslubi.*

### **Абстрактный**

*В данной статье анализируются синтаксические и грамматические особенности корейских рекламных текстов. В исследовании освещаются особенности языка рекламы, а именно порядок слов, структура предложений, уровень использования суффиксов и коммуникативная функция словосочетаний. Также анализируется целесообразность использования в рекламных текстах синтаксических средств, усиливающих эмоциональное воздействие – восклицаний, сокращенных предложений, повторов и параллельных конструкций. В грамматическом отношении рекламные тексты, в*

*отличие от официальной речи, широко используют формы, характерные для данного стиля речи, суффиксы, выражающие значение приказов и приглашений, а также единицы, выражающие модальность. Результаты исследования имеют большое значение для более глубокого понимания языковых особенностей корейского рекламного дискурса и их правильной интерпретации при переводе.*

*Ключевые слова: корейский язык, рекламный текст, синтаксическая особенность, грамматические средства, лексическая особенность, эмоциональное воздействие, языковой стиль.*

### **Abstract**

*This article analyzes the syntactic and grammatical features of Korean advertising texts. The study highlights the specifics of advertising language, namely word order, sentence structure, the level of use of suffixes, and the communicative function of word combinations. It also analyzes the appropriateness of using syntactic means that enhance the emotional impact in advertising texts - exclamations, shortened sentences, repetitions, and parallel constructions. Grammatically, advertising texts, unlike formal speech, widely use forms characteristic of the colloquial style, suffixes that convey the meaning of commands and invitations, as well as units expressing modality. The results of the study are of great importance for a deeper understanding of the linguistic features of Korean advertising discourse and their correct interpretation in translation processes.*

*Key words: Korean language, advertising text, syntactic feature, grammatical means, lexical feature, emotional impact, language style.*

Reklama leksemalarining semantik xususiyatlari asosiy tavsifi uni harakatga keltiradigan g'oya-rejasining tug'ilishi, uning reklama tizimidan o'rin olish va nihoyat iste'molchi idroki bilan bog'liq jarayonlar tavsifi bilan to'ldirilishi lozim. Mazkur bosqichlarning har biri muayyan vaqtda amalga oshadi. Bu bosqichlar orasida reklama mutaxassisi g'oya-rejasi va uning sifati ko'p jihatdan reklama matnining istiqbol taqdirini belgilab beradi. Reklama leksemasining semantik xususiyatlari o'zida voqelikning ichki va tashqi, yakka va umumiy tomonlarini singdirgan bo'ladi. Reklama matnidagi emotsional-ekspressiv leksemalar ifodasi muallif miyasida avval boshdanoq mavhum tushuncha tarzida emas, balki jonli taassurotlar, voqea-hodisalar bilan bog'liq holda vujudga keladi.

Koreya jurnallaridagi mahsulot reklama matnlarida qo'llanilgan leksemalar shaxsiy his-tuyg'ular, emotsional-ekspressiv ifodalar bilan sug'orilgan taqdiridagina uni reklama bilan o'zaro aloqani davom ettirishga undaydi. Mahsulot reklamalaridagi matnlarda inson kechinmalari va tuyg'ulari aks etgan ruhiy holatini ifodalab berishda emotsional-ekspressiv leksemalarning, shuningdek, leksik-semantik omillarning o'rni beqiyosdir.

Shu bilan bir qatorda, jurnallarning asosiy kitobxonni ayollardan tashkil topganligi sababli, mahsulot reklamalarining matnlari badiiy tasavvurda rejalangan qiyofalar asosida, ya'ni, doimo reklama beruvchining estetik orzusiga, uning go'zallik va mukammallik haqidagi o'y-fikrlariga mutanosib bo'ladi. Reklama matnida qo'llanilgan leksemalarning badiiy ijod jarayonida tasavvur kelajakni orzu-umidlar orqali oldindan payqash vazifasini ado etadi. Badiiy tasavvur tarkibida insonning orzu-umidlari, intilishlari va ehtiyojlari mavjud bo'ladi. Shu bois tasavvur ijod uchun rag'batlantiruvchi, birlashtiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, reklama mantlaridagi leksemalar shaxsning ruhiy olamiga ta’sir etish, uni badiiy-estetik jihatdan yuksak pog’onalarga olib chiqish idrokning asosiy muammolaridan hisoblanadi. Mazkur muammo esa o’z navbatida insonning voqealikka hissiy-aqliy munosabati hamda uning nafosatli tarzda idrok etish qobiliyatiga, reklamada tasvirlab berilgan holatni his qilish layoqatiga hamda ularni ongli tarzda mushohada etish madaniyatiga ega bo’lmog’i lozim. Shu tarzda reklama leksemasining semantik xususiyatlari quyidagi turlar bo’yicha asoslanadi:

1. Reklama leksemasining grammatik asoslari
2. Gapning maqsadiga ko’ra turlaridan foydalanish xususiyati

Ishontirish funksiyasini amalga oshirish maqsadida har xil grammatikalar tanlanadi. Masalan, oziq-ovqat reklamalari orasida eng ko’p qo’llaniladigan gap tugallovchi grammatikalar bo’lmish **청유문** [chxongyumun] – taklif gap, **평서문** [pxyongsomun] – darak gap, **감탄문** [kamtxanmun] – his-hayajonli gaplar orqali iste’molchini ishontirishga harakat qiladi. Bundan tashqari **명령문** [myongnyonmun] – buyruq gap, **의문문** [byemunmun] – so’roq gaplar ham mavjud, biroq oziq-ovqat reklamalarida foydalanish darajasi judayam past. Quyidagilarda reklamada qo’llanilgan taklif gap, darak gap, his-hayajonli gaplar keltirilgan.

1) **청유문** – Taklif gap

Oziq-ovqat reklamalarida avvalombor mahsulot ma’lumotlari tushuntiriladi, so’ng iste’molchi bevosita o’zi sotib olishga undaydigan funksiyalar qo’llaniladi.

(1) a. **맛있게 로맨틱하게 프로포즈해 보세요 .**

Yoqimli romantik sevgi izhor qiling.

b. **이제, 소화 걱정 없이 마음껏 누리십시오 .**

Endi ovqat hazm qilish haqida qayg’urmasdan, rohatlaning.

Birinchi misolda ‘**해 보세요**’ [xe po’seyo] – ‘-qilib ko’ring’, ‘**누리십시오**’ [nurishipshio] – ‘bosing’ taklif gaplari qo’llanilgan. ‘**하세요**’ [xaseyo] – ‘bajaring’, ‘**누리세요**’ [nuriseyo] – ‘bosing’ mulozamat bo’lib ko’rinsada, iste’molchilarga taklif qilish ma’nosida kelgan bo’lib, bu kabi taklif gaplar ko’p reklamalarda qo’llanilgan.

2) **평서문** – Darak gap

Jurnallarda uchraydigan oziq-ovqat reklamalarida darak gap ko’p qo’llanilgan. Reklamani asosan ayollar va uy bekalari tomosha qilganligi sababli, ularga mahsulot ma’lumotlarini batafsil tushuntirish uchun oddiy matnlar bo’lmish darak gap tanlanadi. Iste’molchilar mahsulot haqida batafsil ma’lumot orqali sotib olishni xohlashlari odatiy holdir.

(2) a. **한층 깊어진 부드러움, 도브. 한 조각만으로도 느껴지는 풍부한 부드러움-지금은 한층 더 부드러워진 만날 시간입니다 .**

Juda ham mayin bo’lgan Dove. Bir bo’lak bo’lsada his qilsa bo’ladigan mayinlik – hozir yanada mayinlikni his qilish mumkin bo’lgan ondir.

b. **커피향에 이끌려 한 모금 마시면, 우유보다 더 부드러운 맛이 나를 설레게 한다. 커피보다 감미롭게~~우유보다 부드럽게~커피와 우유가 맛있게 만났다 .**

Qahvaning xushbo’y isiga mast bo’lgancha bir qultum ichsam, sutdan ko’ra yanada

mayin ta’mi meni hayajonlantiradi. Qahvadan ko’ra mazali, sutdan ko’ra mayin, qahva va sut totli uchrashishi.

(2 a) misolida darak gap kelgan, lekin ‘-입니다’ [imnida] – koreys tilining birinchi ko’rinishi qo’llanilgan, ya’ni bunda kitobxonlarga yanada mulozamat hissiyoti ta’sirini ko’rsatgan.

(2 b) misolida esa ‘-다’ [da] – koreys tilining uchinchi ko’rinishi qo’llanilgan.

3) 감탄문 – His-hayajonli gap

His-hayajonli gap reklamada tez-tez uchraydigan gap turlaridan biridir. His-hayajonli gap orqali reklama beruvchi deyarli xaridor bilan yakkama-yakka aloqaga o’xshash tuyg’ularni olishga harakat qiladi. His-hayajonli gap iste’molchilar bilan tuyg’ularni ulashish maqsadida qo’llaniladi.

(3) a. 과즙분말을 넣어 더욱 진한 맛!

Meva sharbatlari kukuni solinsa, yana ham hushbo’y ta’m bo’ladi!

b. 여성들의 파티를 위한 저알콜 와인음료-보니또 상그리아 이제는 와인도 패션이다! 모던하고 스타일리시한 여자들만의 Must-have Item, 보니또!

Ayollar oqshomi uchun vino ichimligi bu Bonito Sangria endi modada! Zamonaviy va o’z didiga ega bo’lgan ayollarga xos bo’lgan Bonito!

A. Fonologik xususiyati

Reklama nusxalarida ko’pincha gapning boshida va oxirida bir xil bo’g’in yoki bir xil so’z qo’yiladi. Bu foydalanuvchilarning qiziqishini uyg’otish va taassurot qoldirishida samarali bo’ladi.

(4) 다른 느낌, 다른 맛, 다른 멋... 다른 가치를 추구하는 당신의 위스키입니다.

O’zgacha his, o’zgacha ta’m, o’zgacha chiroy... o’zgacha fazilatni qo’shayotgan sizning viskiyinizdir.

B. Leksik xususiyati

Shuningdek, reklama nusxalarida omonimiya yoki polisemiya so’zlar qo’llanilishi ham ko’zga tashlanadi. Bu reklama leksemasida har xil o’zgacha ma’nolarni tahlil qilish imkoniyatini beradi.

(5) 소문한번 맵네! – 태양초 고추장 .

Mish-mishlar juda achchiq! – achchiq qalampirli soya.

Bu reklama matnidagi ‘맵다’ [mepta] – ‘achchiq’ soyaning achchiq ta’mi mish-mish deya eshitish hissi orqali ko’chma ma’noda kelyapti. Ya’ni, ‘맵다’ [mepta] so’zining polisemik usulidan foyalanish samarali bo’lgan.

1. Reklama leksikasining matndagi o’ziga xos xususiyati

Reklama matni axborotlarini inson o’ziga qay tarzda qabul qilishini kognitiv omil ko’rsatib beradi. Kognitiv omillarni o’rganishda axborotlarni o’zida qabul qilishning turli omillarini tahlildan o’tkazish lozim bo’ladi. Bular his qilish va idrok etish, xotira, tasavvur qilish, fikrlash, nutq va boshqa holatlar.

Koreyalik olim Miseon Kangning [강미선] ta’kidlashicha, reklama mahsuloti yuqori darajada, yoki aksincha, past darajada tayyorlanishi mumkin. Bular insonning qabul qilish

jarayoniga turli ta’sir o’tkazadi. Berilgan reklama matnidagi axborot kishi tomonidan turlicha qabul qilinishi va esda qolishi, shunga qarab o’z harakat yo’nalishini belgilab olishi mumkin. Reklama axboroti ta’sirining eng asosiysi – reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatlarining asosiy xususiyatini belgilab olish va reklama matnida qo’llanilgan emotional-ekspressiv leksemalarni qay darajada qo’llay olishdan iborat. Xususan, reklama matn axborotiga iste’molchi e’tiborini jalb etish, buning uchun kognitiv jarayonlar va emotsional-ekspressiv leksemalarning o’ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilish nihoyatda muhimdir.

Brinker matn funksiyasini asos qilib olib, uni 5 turga ajratdi. Ya’ni ular quyidagicha:

1. Ma’lumot beruvchi matn: xabar, hisobot, mutaxassis kitobi, va hz;
2. Chaqiruv, undov matn: reklama, izoh (komentariya), qonun, ariza va hok.;
3. Majburiy matn : shartnoma, kafolat xati, ahdlashuv xati va hz;
4. Aloqa matn : tashakkurnoma, ta’ziyanoma; sayohat kartasi va hz.;
5. Dalolatnoma matni: vasiyatnoma, tayinlash to’g’risidagi hujjat va hk. .

Tilshunoslikdagi o’rniga ko’ra reklama ikkinchi turga, ya’ni, chaqiruv – undov matnga kiradi. Reklamani gapiruvchi oluvchiga mahsulot yoki xizmat sotib olish uchun murojaat qiladigan funksiya matniga ajratish mumkin.

Reklama matni bo’yicha Jang Geun Oh [오장근] ham o’z izohini qoldirib ketgan: “Reklama – bu mahsulot yoki xizmat yoki jamoat maqsadi to’g’risida ma’lumot beruvchi qisqa, ammo to’liq matn bo’lib, ma’lum vaqt ichida ko’plab potensial iste’molchilarga ko’p miqdorda taqdim etiladigan matn turiga ishora qiladi. Bunday holda, reklama ma’lum bir maqsad uchun sun’iy ravishda shakllangan jozibador funksiyaga ega bo’lgan, mahsulot yoki xizmat uchun ijobiy imidj yaratish orqali uni sotib olish va foydalanishni amalga oshirish uchun ishlatiladigan murojaat matn turi deya olamiz”.

Mazkur tadqiqot ishida Jang Geun Oh [오장근] fikriga tayangan holda jurnallarda nashr qilingan oziq-ovqat reklama matnini ko’rib chiqib lingvistik jihatdan tahlil qilindi. Buning natijasida jurnallarda nashr qilingan oziq-ovqat reklamalarining lingvistik xususiyatlari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

a) So’zlashuv nutq tili

Jurnal reklamalari umumiy nutqlardan biroz farq qiladi. Umumiy nutqda berilgan tinglovchi va ma’ruzachi kerak bo’lganda mavzu bo’yicha bir-birlari bilan ma’lumot almashadilar. Jurnal reklamalarida umumiy ma’ruzachi-reklamaberuvchi keng jamoatchilikni tinglovchi sifatida tasavvur qiladi. Buning sababi shundaki, u faqat mo’ljallangan ma’lumotlarni yetkazib beradi. Ammo bu suhbat bir-biri bilan suhbatlashadigan dialog emas, balki ma’ruzachi bir o’zi gapiradigan monologga o’xshaydi. Bunday vaziyatda reklamaning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi matnning qanchalik ishonarli va oqilona ishlab chiqilganligi bilan belgilanishi mumkin. Odatda tinglovchi reklamani ko’rib, vaziyatga qo’shiladi yoki qo’shilmaydi. Lekin, agar tinglovchi ma’qullasa, sotib olish istagi paydo bo’lishi mumkin, bu esa o’z navbatida sotib olish jarayoniga olib keladi. Bu jarayonni reklama muvaffaqiyatli bo’ldi deb aytish mumkin.

(6) 처음 만나는 일본 스타일 커피. 아이시페루 도토루. 일본 커피명인이 직접 블렌딩한 일본 최대의 커피 전문 브랜드 도토루. 최상급 아라비카 원두 100%의 깊은 맛과 100% 냉장유통의 신선함을 느껴보세요.

도토루, 당신이 처음 만나는 일본 스타일의 커피입니다 .

Ilk bor uchrashayotgan Yaponiya uslubidagi qahva. Aishiteru Doutor. Yaponiya qahva nomi bo’lib, maydalangan. Yaponiyaning eng oldi qahva brendlaridan bo’lgan Doutor. Oliy navli arab donlarining 100% mazasi va 100% muzday toza havoni his qilib ko’ring. Doutor, siz ilk bor ko’rishgan Yaponiya uslubidagi qahvadir.

Yuqoridagi reklama xuddi sizning yoningizdagi odam qo’lini uzatib kofe taklif qilayotganday illuziyani keltirib chiqaradi. Yozma emas, balki so’zlashuv nutqi qo’llanilganligi sababli juda ham yaqin do’stona hissiyotni keltirib chiqaradi. Bu kabi yaqin do’stona munosabatda olingan reklama orqali mahsulot sotilsa, o’sha damdan boshlab natijaga erishilgan deb hisoblanadi.

b) Gapning bosh va oxirgi qismida takror keluvchi so’zlar tarkibi qoidasi

Gapning bosh va oxirgi qismida takror keluvchi so’zlar qoidasi asosan adabiyot sohasida keng qo’llaniladi. Bu qoida boshida keltirib o’tilgan mavzuni keyinchalik yana qayta aniqlashtirib, butun matn davomida ma’nosiga urg’u berish afzalligiga ega. Shuningdek, bunday qoida tarkibi faqat ayollar jurnalida emas, balki umuman olganda ko’p jurnal reklamalarida ham qo’llaniladi. Gapning bosh va oxirgi qismida takror keluvchi so’zlar tarkibi qoidasining afzallik tarafi shundaki, boshida keltirilgan mavzuni oxirida yana aniq urg’u berishi reklama samarasini yanada oshiradi.

(7) 맛있는 우유 GT **Mazali sut GT**

오~~~

О’~~~

대단한데!

Ajoyib!

맛있는 우유 GT .

**Mazali sut GT**

Bu kabi gapning bosh va oxirgi qismida takror keluvchi so’zlar tarkibi qoidasi tinglovchiga ta’sir ko’rsatadi va reklamada ko’rsatilgan mahsulotga bo’lgan qiziqish ortadi.

c) Ayollar ‘holat’ dan ko’ra ‘his-tuyg’u’ni gapirishni yaxshi ko’radi.

Shu bilan bir qatorda, ayollar taqlid so’zlar, undov gaplar, ravish kabi so’z turkumlari bilan ‘his-tuyg’u’ni ifodalagani uchun reklama leksikasida ham bunday so’z turkumlari qo’llaniladi.

(8) a. 더워 뽕뽕~~엄마손 얼음과자, 무더위의 최고 적수는 손발이 뽕뽕

얼 만큼

원한 얼음과자 !

Issiqda ham **taq-taq**~~ onam qo’lidagi muzday shirinlik, issiq havoda qo’llari taq-taq qotgan

Muz kabi

Men xohlagan muzday shirinlik!

b. 고소하고 풍부한 치즈의 맛! 우와~~

Ajoyib va mazali pishloq ta’mi! **Uvaaa**~~

c. 쫄깃 쫄깃, 잘~늘어난다! 입에 착! 감기는 부드러움~~

**Chap-chap**, yaxshi cho’zilyapti! Og’izga shunday yoqimli, mayin~~~

Bu yerda ‘뽕뽕, 우와, 쫄깃 쫄깃’ [kko’ng kko’ng, uva, chcho’lgit chcho’lgit] – **‘taq-taq, uva, chap-chap’** kabi harakatga taqliq so’zlar qo’llanilib reklama yanada ta’sirli qilib

iste’molchilarning diqqatini tortmoqda.

Tahlil jarayonida shunday xulosaga kelindiki, reklama qilinayotgan mahsulotni iste’mol qilish bilan odamda paydo bo’lgan taassurotlar, sezgilar darajasi reklamani baholash qiymatini belgilab beradi. Buning uchun maxsus subyektiv shkaladan foydalaniladi. Ushbu subyektiv shkala qaysi mahsulotning iste’molchi uchun jozibador ekanligini belgilab beradi. Bu shkalalar yaratilishida, albatta, emotsional-ekspressiv leksemalardan foydalaniladi. Reklamalarda sifat leksemalardan nutq jarayonida, jumladan, matnlarda o’rinli va oqilona foydalanish uslubiy ta’sirchanlikni oshirish, ma’noni kuchaytirishning muhim vositalaridan biri ekanligi ko’rib chiqildi.

Davrlar o’tishi bilan til vositalarining nutqda qo’llanish imkoniyatlari kengayib borganidek, koreys tili reklamasida emotsional-ekspressiv fe’l va sifat leksemalarning qo’llanilishi ham yangi okkazonal semalari bilan nutqiy ta’sirchanlik doirasini oshirish haqida nazariyalar tartiblandi.

Grammatik jihatdan emotsional-ekspressiv leksemalarni tasniflash haqidagi tadqiqot olib borgan Chve Jang Ryol [최장렬], Cheon Kiseok [천기석], Jeong Jaeyoon [정재윤] kabilarning nazariyalari tahlil qilindi.

Koreys tilidagi hissiyotning ifodasini umumiy qilib ikkiga, 감각동사 [kamgakto’ngsa] – hissiyot fe’li va 감각형용사 [kamgakxyongyo’ngsa] – hissiyot sifatiga ajratildi va misollar orqali nazariyalarning ma’nosi aniqlab olindi.

Madaniyat va tilshunoslik jihatlardan o’zbek va koreys xalqi reklama matnlarining o’rganilishi va ularning tahlili, ishonchimiz komilki, ikki mamlakat mentaliteti, dunyoqarashidagi farqlar haqida to’laroq tasavvurga ega bo’lishimizga ko’maklashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Azlarova A. Tovarlar reklamasini tashkil qilish va samaradorligi (O’zbekiston korxonalarini misolida) mavzusidagi iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi.-Toshkent. 2005.
2. Батра,Раджив, Айерс, Джон Рж.,Аякер, Девид А.,Рекламный менеджмент. М.: СПб, К. Вильямс, 2000. 5с
3. 3. 여성동아 잡지. 베리로맨틱 Baskin Robbins 케이크 광고. – 서울, 2019. – P. 5 “Donga ayoli” jurnali, Baskin Robbins tort reklamasi,- Seul, 2019. – 5 b.
4. 우먼센스 신문. 소화가 잘되는 우유(maeil) 광고. – 서울, 2015. – P. 8. “Umonsens” gazetasi. Tez hazm bo’ladigan sut reklamasi. – Seul, 2015. – 8 b.
5. 세시 잡지. 도브 광고. – 서울, 2019. – P. 2. “Seshi” jurnali. Dobi reklamasi. – Seul, 2019. – 2 b.
6. 우먼센스 신문. 커피우유(서울우유) 광고. – 서울, 2015. – P. 9. “Umonsens” gazetasi. Seul suti reklamasi. – Seul, 2015. – 9 b.
7. 여성조선 잡지. 동서 아이스티 광고. – 서울, 2019.– P. 9. “Choson ayoli” jurnali. Aisti reklamasi. – Seul, 2019. – 9 b.
8. 팻찌 (PATZZI) 신문. 보니또광. – 서울, 2019. – P. 12. “Patchi” gazetasi. Bo’nito reklamasi. – Seul, 2019. – 12 b.
9. 여성조선 잡지. 발렌타인 마스터스 광고. – 서울, 2019.– P. 8. “Choson ayoli”

- jurnali. Valentin master reklamasi. – Seul, 2019. – 8 b.
10. 우먼센스 신문. 고추장 광고. – 서울, 2019. – P. 2. “Umonsens” gazetasi. Achchiq sous reklamasi. – Seul, 2019. – 2 b.
  11. 강미선. 광고에 대한 소비자 반응모델: 광고, 소비자, 상황적 요인의 통합적 접근. – 서울: 고려대 박사논문, 2011. – P. 32. Kang Mison, “Reklama haqida xaridorning fikri: reklama, xaridor, holatga qarab moslashish” – Seul: Koryo Universiteti, 2011.- 32 b.
  12. 브린케르 클라우스. 텍스트언어학의 이해: 언어학적 텍스트분석의 기본 개념과 방법. – 서울, 1992. – P. 133. Brinker Klaus, “Matn tilini tushunish: matnni tahlil qilishning asosiy nazariyasi va metodi”. – Seul, 1992. – 133 b.
  13. 오장근. 광고어의 분석을 위한 텍스트 언어학적인 제안 – 독일언문학. // 제12호. – 서울: 한국독일어문학회, 2000. – P. 363. O Jangn, “Reklama tilini tahlili uchun matn tilining tuzilishi” – Dongil adabiyoti. – Seul: Koreya Dongil adabiyoti konferensiyasi, 2000. – 363 b.
  14. VOGUE (Korea) 신문. 도토리(DouTor) 광고. – 서울, 2019. – P. 13. VOGUE (Korea) gazetasi. DouTor reklamasi. – Seul, 2019. – 13 b.

## KOREYS TILIDAGI YORQIN MAZMUNLI GAZETA MATNLARI: EMOTSIONAL VA SEMANTIK DOMINANTALAR PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

**Yulduz Kudratova**

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi,  
“Xorijiy tillar” kafedrasida o’qituvchisi

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada koreys tilidagi yorqin mazmunli gazeta matnlari psixolingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional va semantik dominantalarning matn mazmunini shakllantirishdagi o’rni, ijobiy kayfiyatni yuzaga keltiruvchi leksik va grammatik vositalarning funksional xususiyatlari ko’rib chiqiladi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, koreys gazeta matnlari tarkibidagi ijtimoiy birdamlik, xayriya, mehr-oqibat va o’zaro yordam g’oyalari o’quvchida ijobiy emotsional rezonans yaratib, matnning kommunikativ ta’sirchanligini oshiradi. Shu jihatdan, koreys tilidagi yorqin mazmunli matnlarning psixolingvistik tahlili matnshunoslik va kommunikatsiya tadqiqotlari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.*

*Kalit so’zlar: yorqin mazmunli matn, koreys gazeta diskursi, psixolingvistika, emotsional dominanta, semantik dominanta, leksik-semantik vositalar, grammatik konstruktsiyalar, kommunikativ ta’sirchanlik.*

### **Абстрактный**

*В данной статье рассматривается психолингвистический анализ корейских газетных текстов с ярко выраженной позитивной семантикой. В исследовании раскрываются роль эмоциональных и семантических доминант в формировании содержания текста, а также функциональные особенности лексических и грамматических средств, обеспечивающих создание позитивного эмоционального фона в сознании читателя. Результаты анализа показывают, что идеи социальной солидарности, благотворительности, милосердия и взаимопомощи, представленные в корейских газетных текстах, формируют устойчивый положительный эмоциональный резонанс и повышают коммуникативную воздействующую силу текста. В связи с этим психолингвистическое изучение позитивно окрашенных корейских текстов представляет значимую научную ценность для текстологии, прагматологии и исследований в области коммуникации.*

*Ключевые слова: позитивно окрашенный текст, корейский газетный дискурс, психолингвистика, эмоциональная доминанта, семантическая доминанта, лексико-семантические средства, грамматические конструкции, коммуникативная воздействующая сила.*

### **Abstract**

*This article presents a psycholinguistic analysis of Korean newspaper texts characterized by distinctly positive semantic content. The study examines the role of emotional and semantic dominants in shaping textual meaning, as well as the functional features of lexical and grammatical devices that generate a positive emotional background in the reader’s cognition. The findings demonstrate that the concepts of social solidarity, charity, compassion, and mutual support represented in Korean newspaper discourse foster a stable positive emotional resonance and significantly enhance the communicative impact of the text. Therefore, the psycholinguistic investigation of positively oriented Korean texts holds substantial scholarly value for research in text linguistics, pragmatics, and communication studies.*

*Key words: positively oriented text, Korean newspaper discourse, psycholinguistics, emotional dominant, semantic dominant, lexical-semantic devices, grammatical constructions, communicative effectiveness.*

Zamonaviy dunyo global axborotlashtirish maydoni ekanligi sababli so’nggi paytlarda matn semantikasining noaniqligi muammosi dolzarb bo’lib qolmoqda. Zamonaviy inson doimo tushunishi, sharhlashi va kundalik faoliyatida faol foydalanishi kerak bo’lgan ma’lumotlar oqimining ta’siri ostida qolmoqda. Ba’zi hollarda bir ma’noli talqinlarning ko’p ma’noli axborot sifatida talqin qilinishi xavfi ham mavjud bo’ladi. Shu o’rinda mashhur rus psixologi va psixolingvisti N.I.Jinkinning “bir matnni turli xil odamlar tomonidan obyektiv tushunilishining (qabul qilinishining) iloji yo’qdir” degan fikrlari o’z tasdig’ini topadi. Agar matnning semantik tuzilishini tahlil qilishning psixolingvistik usullariga murojaat qiladigan bo’lsak, unda ko’plab tilshunoslar uni triada nuqtai nazaridan ko’rib chiqadilar: generativ-matn – idrok (anglash).

Yorqin mazmunli matnlar ko’pincha jamiyat, tarix, madaniyat va dinning dolzarb muammolariga bag’ishlangan bo’ladi. “Yorqin” mazmunli matnlar ko’p hollarda publitsistik, jurnalistik, dinamik va didaktik matnlarga oiddir. Bunday matnlarda yaxshilikka da’vat

qilish, yomonlikdan qaytarish, mehr-muruvvat ko’rsatish va o’zaro hurmatga chaqirish xarakterli hisoblanadi va mualliflar odatda etik va axloqiy qarashlarga murojaat qiladilar:

“A씨는 “저는 진짜 이웃 주민들을 잘 만난 것 같다”며 “평소에도 이웃 할아버지, 할머니, 이모들이 아이 인사받아주시고 안부도 물어봐 주시고 먹을 것도 나눠 먹어서 이곳은 삭막하지 않구나 생각했다” 고 말했다. 그러면서 “너무 좋은 이웃을 만나 아기가 착하고 건강하게 자랄 수 있을 것 같다”며 글을 마무리했다” .

«A xonim “Meni chindan ham yaxshi qo’shnilarim bor. Odatda qo’shni bobo, buvi, amaki, xolalar bolam bilan salomlashib, hol-ahvol so’rashib, yeguliklarni ham bo’lishib yeyishganligi sababli men bu yer kimsasiz joy emasligini his etaman. Va bizning yaxshi qo’shnilarimiz borligi sababli farzandim mehribon va sog’lom bo’lib voyaga yetishiga ishonaman”, deya fikrini yakunladi».

Yuqoridagi maqola parchasida A. xonim qo’shnilaridan mamnun ekanligi bayon qilingan. A. xonimning qo’shnilaridan mamnun ekanligini quyidagi misollarda ko’rish mumkin:

“이모들이 아이 인사받아주시고 안부도 물어봐 주시고 먹을 것도 나눠 먹어서».

“Holalar bolam bilan salomlashib, hol-ahvol so’rashib, yeguliklarni ham bo’lishib yeyishganligi sababli».

Yuqoridagi misolda A. xonim qo’shnilarining xatti-harakatlari uni va farzandini mamnun qilayotganini aytmoqda. Shuningdek, gazeta parchasida o’quvchi tomonidan matnni ma’lum bir idrok etishga psixologik ta’sir ko’rsatadigan ~아/어 주다 ko’makchi fe’li uch marotaba qo’llanilganligini ko’rish mumkin. ~아/어 주다 ko’makchi fe’li ish-harakatning kimdir uchun qilinganligini anglatadi.

G.D.Yunusovning «Koreys tilida ko’makchi fe’llar» nomli monografiyalarida ~아/어 주다 ko’makchi fe’llariga quyidagicha ta’rif beriladi: “Biror bir shaxsga qaratilgan yoki biror shaxs uchun amalga oshirilgan harakatni ko’rsatuvchi ko’makchi fe’l guruhiga 주다 (chuda) ko’makchi fe’li va uning 주시다 (jusida), 드리다 (deulida) hurmat shakllari kiradi” . Demak, bundan ma’lum bo’ladiki, gazeta parchasida ~아/어 주다 grammatik konstruksiyasining qo’llanilganligi qo’shnilarining A. xonimning farzandiga yaxshi munosabatda bo’layotganligidan dalolat beradi va bu gazeta parchasini yorqin mazmunli gazeta matniga taalluqli deb aytish uchun asos bo’la oladi:

“너무 좋은 이웃을 만나 아기가 착하고 건강하게 자랄 수 있을 것 같다”.

“Yaxshi qo’shnilarimiz borligi sababli farzandim mehribon va sog’lom bo’lib voyaga yetishiga ishonaman”.

Yuqoridagi fikr bilan A. xonim yaxshi qo’shnilari tufayli farzandinining kelajagidan havotir olmasligini aytib, quvonchini izhor qilmoqda.

V.P.Belyaninning fikriga qaraganda yorqin matnlarning quyidagi kalit so’zlari (leksika) mavjud:

Yaxshilik: samimiylik, aniqlik, chin dildan gapirmoq (samimiy, qizg’in, ochiq, dadil, qat’iy, to’g’ridan-to’g’ri), toza fikrli. Ilm nurini olib kirmoq, samimiy, rostgo’y, to’g’ridan-to’g’ri, mehribon, ishonchli, pok, pok qalb bilan, mehribon, fidoyi (fidokorona), sodiq. Printsipial, munosib, mehribon, chin yurakdan, samimiylik bilan harakat qiladigan; o’z burchini bajarish, odamlar uchun hamma narsani qilish, oliyanob; farishta, Xudo, muqaddas, Vatan, vatanparvarlik.

Haqiqat: halollik, or- nomus, poklik, haqiqat, odob, ezgulik, adolat, qadr-qimmat, insof, to’g’rilik, soddalik, go’zallik; tabiiylik: vijdon; donolik, aql.

Inson: qarash (o’tkir, tiniq), ko’z, yurak, qalb; issiq (iliq) qo’llar, qalb tubida, qallda (yurakda); men, menga, ism; so’zlamog (oddiy, qizg’in, baland ovozda).

Do’st: do’st, do’stlik, birodarlik, birlik, jamoa, yaqinlik, mehr-oqibat, to’g’rilik, qahramonlik, matonat, o’zaro tushunish, muhabbat, g’amxo’rlik, mehr; mehmondo’stlik, iliqlik, hurmat; ma’naviyat, poklik (munosabatlar) .

Yorqin mazmunli gazeta matnlariga quyidagi gazeta matnini ham kiritish mumkin:

“부산의 한 중학교 학생 10명이 교문 앞에서 과지를 줍는 할머니를 다 함께 돕는 모습이 공개돼 연말연시 감동을 주고 있다.

갑자기 추워진 날씨에 거세진 바람이 할머니가 정리해놓은 과지들을 뿔뿔이 흩뿌렸다. 이에 학생들은 자처해서 흩어진 과지를 주워 손수레에 정리하고, 할머니를 도와 무거운 수레를 밀고 끌며 길을 나섰다. 일부 학생들은 수레에 미처 담지 못한 과지를 양손 가득 담아 가슴팍으로 끌어안은 채 할머니와 종종걸음을 함께했다” .

“Pusan shahrida joylashgan o’rta maktabning 10 nafar o’quvchilari maktab darvozasi oldida qog’oz yig’ayotgan keksa ayolga yordam berayotganligi aks ettirilgan suratlar e’lon qilindi va yangi yil bayrami arafasida ko’pchilikka ta’sir ko’rsatdi. To’satdan havo soviq ketib kuchli shamol esa boshlaydi va keksa ayol yig’ib qo’ygan qog’oz parchalarini har qayerga uchirib yuboradi. Buni ko’rgan o’quvchilar ixtiyoriy ravishda sochilib ketgan qog’oz parchalarini yerdan olib aravaga joylashtirdilar va keksa ayolga aravani tortib ketishga yordam berdilar. Ba’zi o’quvchilar esa, aravaga sig’magan qog’oz parchalarini ikki qo’llari bilan ko’tarib olib, keksa ayol bilan birgalikda tez-tez yurib ketishardi”.

Yuqoridagi yorqin mavzuli gazeta matnida quyidagi kalit so’zlar keltirilgan:

돕다 – yordam bermog

감동을 주다 – ta’sir ko’rsatmog, taassurot qoldirmog

함께하다 – birgalikda bajarmog

Umuman olganda, maktab o’quvchilarining keksa bir ayolga yordam ko’rsatganligi haqidagi ma’lumotning o’zi matnning yaxshilikka qaratilganini anglatadi. So’nggi paytlarda internet tarmog’i, atrofdagi muhit va boshqa ko’pgina sabablar tufayli bolalarning dunyoqarashi va tarbiyasi yomon tarafga o’zgarib ketayotgan bir paytda, bunday yangiliklar gazeta maqolalarida aks etayotgani insonlarning kayfiyatini ko’taradi. Dunyoda yaxshi insonlar bor ekanligi quvontiradi. Shu sababli ham bunday yuqoridagi gazeta matnini yorqin mazmunli matnlar sirasiga hech ikkilanmay kiritish mumkin:

«TV 뉴스나 신문 기사를 보면 주변 곳곳에서 나눔을 실천하는 사람들의 소식을 만날 수 있습니다. 특히 추운 겨울이나 한 해가 시작되면 훈훈한 기부와 봉사 소식은 더 자주 전해지죠. 작은 행복이라도 함께 나누고 싶어 하는 이들 덕분에 나눔 문화는 끊이지 않고 계속되고 있습니다” .

“Televizor orqali ko’rsatiladigan yangiliklar yoki gazeta maqolalarini ko’rsangiz, atrofingizdagi odamlarning yaxshilik ulashayotganligi haqidagi xabarlariga duch kelishingiz mumkin. Xususan, sovuq qish yoki yangi yil boshlanishida samimiy xayr-ehsonlar va valontyorlar haqidagi yangiliklar yanada ko’proq bo’ladi. Kichik bo’lsa-da, baxtni baham

ko‘rishni istovchilar tufayli baham ko‘rish madaniyati davom etmoqda”.

Navbatdagi yorqin mazmunli gazeta matnida quyidagi kalit so‘zlar keltirilgan:

나눔을 실천하다 – bo‘lishmoq

훈훈한 (기부) – iliq, samimiy (xayriya)

봉사 – volontyorlik

작은 행복 – kichik baxt

함께 나누다 – birga bo‘lishmoq

나눔 문화 – bo‘lishish madaniyati

덕분에 – odatda kimgadir minnatdorchilik bildirayotganda bu so‘zdan foydalaniladi .

Matnda “tufayli”, “sababli”, “sharofatingiz bilan”, “sa’y-harakatlaringiz bilan” deb tarjima qilinadi.

Gazeta matnida Koreyada insonlar tomonidan amalga oshiriladigan xayriya va volontyorlik haqida gap ketmoqda. Xayriya va o‘zgalarga volontyorlik qilib yordam ko‘rsatmoq insonlarni oz bo‘lsa-da baxtiyor qila oladigan va yaxshilik ulashiladigan ish hisoblanadi. Ana shu belgilarni inobatga olgan holda bu gazeta matnini yorqin mazmunli gazeta matniga kiritish mumkin:

“한 어린이가 아침 일찍 면사무소를 방문해 몰래 놓고 간 선물이었죠. 선물꾸러미 안에는 마스크·라면·양말·돼지저금통 등이 들어 있었어요.

또박또박 정성스럽게 쓴 카드에는 “사랑하고 힘내세요! 어려우신 분들에게 나누어 주세요! 제가 열심히 모은 돈이니 힘든 분들께 나누어 주세요. 이번 겨울이 많이 추워서 발이라도 따뜻하시라고 양말도 보내드립니다”라고 적혀있었죠. 얼굴 없는 꼬마 천사의 선행은 2020년 3월 ‘코로나19로 어려운 이웃에게 전해달라’며 공적마스크와 생필품 박스를 놓고 간 것을 시작으로 이번이 5 번째입니다” .

“Erta tongda bir bola Myon offisiga kelib, yashirincha sovg‘alarni tashlab ketgan edi. Sovg‘a paketining ichida niqob, ramyon, paypoq va cho‘chqacha shaklidagi pul yig‘adigan idish kabilar bor edi. Aniq qilib yozilgan kartalarda “Seving va kuchli bo‘ling!”, “Iltimos, muhtojlarga ulashing!”, “Bu mening mehnat qilib topgan pullarimdir, iltimos uni muhtojlarga ulashing”, “Bu qish juda ham sovuq bo‘lganligi sababli oyog‘ingiz issiq bo‘lishi uchun paypoq ham jo‘natyapman” , deb yozilgan edi. Kimligi noma‘lum bu kichkina farishtaning bunday xayrli ishlari 2020-yilning mart oyidan boshlangan edi. Unda “Corona-19 tufayli qiynalib qolgan qo‘shnilaringizga yetkazib bering”, deb yozilgan qog‘oz, shuningdek, jamoat niqoblari va kundalik ehtiyojlar uchun kerakli narsalar solingan qutini tashlab ketgan edi. Bu bolakayning bu safargi xayriyasi beshinchisi hisoblanadi”.

Yuqoridagi yorqin mazmunli gazeta matnining kalit so‘zlari:

선물 – sovg‘a

정성스럽게 쓰다 – chin dildan yozmoq

힘내세요 – kuchli bo‘ling

나누어 주다 – ulashmoq, tarqatmoq

꼬마 천사 – jajji farishta va boshqalar

Yuqoridagi gazeta matni parchasida yosh bolaning o‘zidan ko‘ra ko‘proq boshqalar haqida qayg‘urishi, o‘zgalarga quvonch, yordam ulashish uning uchun oddiy hol ekanligini ko‘rish mumkin. Dunyoda Corona-19 kasalligi tarqalib, ko‘plab insonlarning qiyin vaziyatga

tushib qolishiga sababchi bo’ldi. Buni ko’rib, tushunib, anglab yetgan bolakay boshqalarga mehr ulashish, qiyinchilikka tushib qolgan insonlarga kichik bo’lsa-da, yordam berishga urinmoqda. Ushbu matn parchasining yorqin mazmunli gazeta matnlariga kiritishimizning yana bir isboti sifatida bolakayning kartochkalarga yozgan gaplarini misol tariqasida keltirish mumkin:

사랑하고 힘내세요! Seving va kuchli bo’ling!

어려우신 분들에게 나누어 주세요! Iltimos, muhtojlarga ulashing!

이번 겨울이 많이 추워서 발이라도 따뜻하시라고 양말도 보내드립니다.

Bu qish juda ham sovuq bo’lganligi sababli oyog’ingiz issiq bo’lishi uchun paypoq ham jo’natyapman.

Yuqorida keltirilgan bolakayning gaplarida hech qanday agressiya, yomonlikka undovchi, insonning dilini og’rituvchi mazmundagi gaplar yoki so’zlar mavjud emas. Unda bolakay faqat yaxshi va samimiy tilaklar bildirgan. Shuningdek, gazeta matn parchasida ~아/어 주다 grammatik konstruksiyasidan bir necha bor foydalanilgan. Ana shu barcha keltirilgan misollarni yuqorida keltirilgan gazeta matnini yorqin mazmunli gazeta matniga kiritishi uchun sabab bo’la oladi.

Yorqin mavzuli gazeta matniga yana bir misol:

“아이들이 신나게 계단을 오를 때마다 계단에 반짝 반짝 불이 들어옵니다. 계단을 밟을 때마다 10원 씩 기부금이 쌓이는 ‘건강계단’입니다.

건강계단에 이용자 수를 세는 센서가 부착돼 누적 기부금액이 전광판을 통해 실시간으로 나타납니다” .

“Har safar bolalar zavq bilan zinapoyalardan ko’tarilishganda, zinalarda yalt-yalt etib chiroqlar yonadi. Bu “Salomatlik zinapoyasi” bo’lib, har zinapoyaga qadam qo’yganingizda 10 vondan xayriya yig’iladi.

“Salomatlik zinapoyasi”da foydalanuvchilar sonini hisoblovchi datchik o’rnatilgan bo’lib, to’plangan xayriya miqdori real vaqtda elektron displey paneli orqali ko’rsatiladi”.

Yuqorida keltirilgan yorqin va quvnoq mazmunli gazeta matnining kalit so’zlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

신나다 – zavqlanmoq, quvonmoq

반짝 반짝 불이 들어오다 – yalt-yalt etib chiroqlar yonmoq

기부금이 쌓이다 – xayriya yig’ilmoq

건강계단 – salomatlik zinapoyasi

Keltirilgan gazeta matnida “Salomatlik zinapoyasi”dan foydalanish orqali insonlar nafaqat o’zlarining salomatliklari uchun, balki o’zgalarga ham yaxshilik ulashishi mumkinligi haqida bayon etilgan. Shunchaki zinadan ko’tarilish bilan nogironlarga yordam ko’rsatish mumkinligi juda ham ajoyib ish hisoblanadi. Matnda bolalarning zinadan ko’tarilish bilan zavq olishi, xursand bo’lishi mana bu gap orqali ifodalangan:

“아이들이 신나게 계단을 오를 때마다 계단에 반짝 반짝 불이 들어옵니다”.

“Har safar bolalar zavq bilan zinapoyalardan ko’tarilishganda, zinalarda yalt- yalt etib chiroqlar yonadi”.

Bolalarning bunday savobli ishdan zavqlanishi, quvonishi kattalarni ham quvonchiga sabab bo’ladi. Demak, bu matn parchasini nafaqat yorqin mazmunli gazeta matnlariga,

balki, quvnoq gazeta matnlariga ham kiritish mumkin:

인터뷰: 직원

Intervyu: xodim

“평소에 점심시간 이용해서 계단 많이 오르고 내리고 하는데 여기 건강계단 생겨서 기부도 할 수 있고 운동도 할 수 있으니까 참 기분이 좋은 거 같습니다”.

“Men odatda tushlik paytida zinapoyadan ko’p tushib chiqaman. Bu yerda “Salomatlik zinapoyasi” yuzaga kelganidan so’ng, men xayriya qilish bilan birga sport bilan ham shug’ullana olganim sababli o’zimni juda ham yaxshi his qilyapman”.

Bu gapda xodim “Salomatlik zinapoyasi” unga ham quvonch baxsh etayotganini aytib mamnun bo’lmoqda. U sport bilan shug’ullanish bilan birga xayriya ham qila olayotganligidan kayfiyati juda ham yaxshi ekanligini aytmoqda. Bunday ijobiy izohning xodim tomonidan aytilayotganligi ham bu gazeta matnini yorqin va quvnoq mazmunli gazeta matniga kiritishga asos bo’la oladi:

“생명보험사회공헌재단과 한국야쿠르트 등 9개 민간기업의 후원을 통해 마련된 기부금은 걷지 못하는 장애 아동 등 건강 취약계층에 지원됩니다. 이렇게 모아진 기부금 덕분에 16살 김영호 군도 혼자 이동하는데 보탬이 되는 고가의 점진적 보행 훈련기를 얻게 됐습니다”.

“To’qqizta xususiy kompaniya, jumladan “Hayotni sug’urtalash” ijtimoiy badal jamg’armasi va “Koreya Yakult” homiyligi orqali yig’ilgan xayriya mablag’lari nogiron, yura olmaydigan bolalar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga beriladi. Shu tarzda yig’ilgan xayriya sababli 16 yoshli Kim Yon Xo yolg’iz harakat qila olishida yordam beradigan qimmat va progressiv yurish bo’yicha trener mashinaga ega bo’ldi”.

Yuqoridagi gazeta matnida salomatlik zinapoyasidan yig’ilgan mablag’lar nogironligi bo’lgan, yura olmaydigan bolalar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga berilishi haqida aytilmoqda. Ana shu yig’ilgan pullar Kim Yon Xo ismli bolaga katta yordam bo’lgan. Kim Yon Xo endi trener mashina orqali hech kimga suyanmagan holda o’zi harakatlana oladi. Yordamga muhtoj va nogiron bo’lgan bu bolakay ana shunday mashinaga ega bo’lgani uchun uning cheksiz quvonchini tasavvur qilish mumkin. Shu sababli ham yuqoridagi gazeta matnini yorqin va quvnoq mazmunli gazeta matniga kiritish mumkin. Yuqorida berilgan misollardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, yorqin mazmunli matnlar odatda yaxshilikka qaratilgan bo’ladi. Yorqin mazmunli matnlarda insonning yaxshiligi axloqiy va amaliy faoliyatida yuzaga chiqib, unda ochiqko’ngillik, halollik, mardlik, insoflilik, adolat, rostgo’ylik kabi fazilatlar mujassam bo’ladi.

Yorqin mazmunli gazeta matnlari insoniy yaxshilik, mehr-muruvvat va ijobiy axloqiy qadriyatlarni targ’ib qilib, o’quvchida samimiylik, fidoyilik va boshqalarga yordam berish kabi his-tuyg’ularni uyg’otadi. Psixolingvistik vositalar, xususan grammatik konstruktsiyalar, matnni idrok qilish jarayonida o’quvchining ijobiy kayfiyatini shakllantiradi. Shu sababli, bunday matnlarni tizimli tahlil qilish va ularning ijobiy ta’sir mexanizmlarini o’rganish tilshunoslik va kommunikatsiya sohalarida katta ilmiy ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Azimova I.A. O’zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining

- psixolingvistik tadqiqi. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: O’zMU, 2008. – 45 b.
2. Yunusova G. D. Zamonaviy koreys tilida ko‘makchi fe’llarning semantik-funksional xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDSHU, 2020. – 50 b.
  3. Белянин В.П. Основы психолингвистической диагностики. Модели мира в литературе. – М.: «Три-вола», 2000. – С. 247.
  4. Жинкин Н.И. Язык-речь-творчество: Исслед. по семиотике, психолингвистике, поэтике – М.: «Лабиринт», 1998.– С. 364.
  5. 김관규. 인쇄신문과 인터넷신문의 동일 기사 제호 비교분석에 관한 연구. –한국지역언론학회, 2013.
  6. <https://ilis.yonsei.ac.kr/콘텐츠/연세현대한국어사전>
  7. <https://www.joongang.co.kr/>
  8. [www.naver.dic.com](http://www.naver.dic.com). Naver 온라인 사전